



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**O‘LIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

*Jo`rayev Muhridinning*

*“5310200 “Psixologiya” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini  
olish uchun*

*“Talabalar o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik xususiyatlari”  
mavzusida yozgan*

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar : o‘q.N.Ismoilov**

“Himoyaga tavsiya etildi”

**Pedagogika – psixologiya fakultet**

dekani \_\_\_\_\_ dots.SH.Nurillayeva

“ \_\_\_\_\_ ” 2014 yil

**Qarshi - 2014**

## **Mundarija**

### **Kirish**

#### **I-Bob. Talabalar o‘quv motivatsiyasi muammosining nazariy tahlili**

##### **1.1.Talabalik davrining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari**

##### **1.2.Psixologiya fanida motivatsiya muammosining o‘rganilishi.**

#### **II-BOB. Talabalar o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik xususiyatlari**

##### **2.1.Talabalar o‘quv faoliyatining turlari va xususiyatlari**

##### **2.2.Talabalar faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar**

##### **2.3.Talabalarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirish yo‘llari**

### **Xulosa**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi;** Shaxs tarbiyasi, uning ijtimoiy-psixologik kamoloti har qanday davlatning bosh strategik masalalaridan biridir. Chunki, shaxsni ma'lum ezgu g'oyalar, ijtimoiy-psixologik va yuksak intellektual talablar asosida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo'lmaydi.

Zero, bu jarayonda eng avvalo ta'lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixologik tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xozirgi eng dolzarb muammolardan biri oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini keskin oshirishdan iboratdir. Chunki respublikamizning rivoji, ravnaki va istikboli ko'proq; oliy maktab tayyorlayotgan mutaxassislarning mahoratiga bog'liqdir. Shuning uchun o'qitishning yangi ilg'or, faol usullarini qo'llash, oqilona vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ayni paytda, mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta'lim olishi masalalari davlat siyosati maqomi darajasida hal qilinayotganligi bugungi yoshlarimizning hech kimdan kam bo'lmagan porloq kelajagiga jiddiy e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir. Buni prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlaridan ham yaqqol anglash mumkin: "Ta'lim-tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi". (Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar)-T: Sharq, 1998-184 b.)

Bu jarayonning keng ko'lamda amalga oshirilishi uchun esa eng avvalo ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchi barcha xodimlarga ayniqsa psixologlarga juda katta mas'uliyat yuklaydi. "Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib

chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak". [1]

Tabiiyki, eng avvalo ushbu vazifani bajarishni esa ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning bugungi zamon talablariga javob bera oluvchi ijtimoiy – psixologik holatiga jiddiy e'tiborni qaratishdan boshlash kerak bo'ladi. Demak, ta'lim davridayoq har bir talaba shaxsida o'quv faoliyatiga bo'lgan faol-ijobiy munosabat motivlarining yetarli darajada shakllantirish bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq qilish masalasi bugungi ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lmog'i kerak.

Ayni paytda, talaba shaxsidagi ta'lim o'ziga xos individuallik, betakrorlik, identifikatsiya, va refleksiya jarayonlarining o'quv faolligiga bevosita ta'sirini va bu ta'sir doirasidagi munosabat motivatsiyasiga daxldor ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni olib bormay turib ta'lim samaradorligini ta'minlab bo'lmaydi.

Shuningdek, mavzuning dolzarbligi eng avvalo

ta'lim-tarbiya jarayonini tashqil etish bilan birga bu jarayonga nisbatan bugungi talabaning munosabatlarida turli xil ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirining ortib borayotganligi;

ta'lim obekti, subekti, o'qituvchi, talaba, guruhlar o'rtasidagi munosabatlar motivatsiyasining o'quv jarayonida tez-tez o'zgarib borayotganligi;

ta'lim obektlarida o'quv faolliyi va o'quv faolligining o'zaro mutanosibligiga jiddiy e'tibor qaratishning zarurligi, o'quv faolliyi doirasidagi munosabat motivatsiyalariga ta'sir etuvchi, "tashqi" va "ichki" psixologik omillarda keskin o'zgarishlarning kuzatilayotganligi.

---

Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. I.Karimov – T. "Ma'naviyat", 2008

-talaba shaxsida kechayotgan o'z-o'ziga, o'zgalarga va faoliyatga bo'lgan munosabatlar iyerarxiyasining bevosita ta'lim samaradorligiga ta'sirini hisobga olish va bu ta'sir doirasida har bir o'quvchi shaxsini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarning tobora ortib borayotganligi kabi holatlar bilan belgilanadi va baholanadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Umuman, o'quv motivatsiyasi muammosi bo'yicha turli soha vaqillari, jumladan faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar (B.G.Ananov, G.M.Andreyeva, A.A.Bodalev, YE.V.Shoroxova, A.V.Vedenov, Y.M.Zabrodin, A.G.Kovalev, I.S.Kon, T.A.Kitvel, V.S.Merlin, V.N.Myasishev, I.P.Pavlov, K.K.Platonov, YE.D.Parigin, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov, F.Allpomt, I.Aizen, M.F.Fisehbein, T.Maslou va boshqalar) o'z tadqiqot maqsadlariga asoslanib munosabatning turli yo'nalishlarini o'quv motivatsiyasi tadqiqot obektiga aylantirganlar va ma'lum darajada talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarini yaratganlar.

**Bitiruv malakaviy ishning obekti:** Oliy o'quv yurtining talabalari

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti:** Talabalar o'quv motivatsiyasining shakllanishi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:** Talabalar o'quv motivatsiyasi shakllanishining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish, tadqiq qilish va shu asosda tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:**

1. Talabalar uchun harakterli bo'lgan o'quv motivatsiyasining shakllanish jarayonini ijtimoiy-psixologik muammo sifatida tadqiq qilish.
2. O'quv faolligini ta'minlashga xizmat qiluvchi motivatsiyaga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash.
3. Muayyan usullar orqali talabalar misolida o'quv motivatsiyasi ko'rsatgichlariga baxo berish.
4. Qo'lga kiritilgan empirik ma'lumotlar asosida tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati.** Ish ijtimoiy psixologiya fani uchun muhim bo'lgan munosabat motivatsiyasi tushunchasini yanada kengroq ko'lamda tadqiq qilish imkonini beradi.

Yillar davomida qator ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan olib borilgan tadqiqotlar natijasi o'quv faolligi munosabat motivatsiyasining eng avvalo shakllanishi o'quvchi shaxsining o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyoti tamoyillariga xizmat qiluvchi qiziqishlar, umumiy yo'nalganlik, o'quv ustanovkalari va qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ishimiz empirik natijalariga asoslanib ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktab psixologlari o'z faoliyatlarida unumli foydalanishlari mumkin.

Ish natijalari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda shakllanayotgan munosabat motivatsiyasini o'rganish muammosini tadqiq qilish bilan bog'liq quyidagi ilmiy yo'nalishlar rivojiga xizmat qilishi mumkin:

Ishda munosabat motivatsiyasi tizimining umumiy jihatlariga jiddiy e'tibor qaratish muammosi ko'tarildi va shu muammo ichidan munosabat motivatsiyasining faqat uchta turi (faol-ijobiy, ijobiy, indifferent) o'rganildi hamda tadqiq qilindi;

**Bitiruv malakaviy ishi** kirish, ikki bob, beshta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Hajmi 52 betni tashkil etadi.

## **I-Bob. Talabalar o‘quv motivatsiyasi muammosining nazariy tahlili**

### **1.1. Talabalik davrining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari**

Talabalik davri deganda moddiy va ma'naviy ishlab chikarishda ijtimoiy xayotda va mutaxassislikka oid rollarni muayyan koida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy gurux tushuniladi.

Oliy o‘quv yurtidagi ta’lim o‘ziga xos xususiyatlari talabalarining boshqa ijtimoiy guruxlar bilan (ular gox rasmiy, gox rorasmiy bulishdan ka’tiy nazar) muloqotga kirishlari uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalarning davrining asosiy xususiyatlaridan viri ijtimoiy yutuklikning jadal suratlar bilan ruyobga chikarishdir.

Ma'lumki ijtimoy yutuklik (kamolot) shaxsdan zarur akliy kobiliyatni hamda ijtimoiy turmushda bajariladigan turli rollarni egallashga (oila kurishga), farzandlarini tarbiyalashga, foydali mexnatga katnashishga (ma'sul vazifada ishlashga) tayyorlanishni talab qiladi. Mazkur jarayonning bosh mezonlari va kursatkichlari, urta ma'lumotlilik jamoatchilik topshirigi mexnatda faollik kursatish, konunlar oldida javobgarlik , mutaxassis bulish imkoniyati, uta intilish tuyg'usi, irodaga zur berish,yosh onalik va otalik burchi, jamoat arbobi vazifasini utash, ijtimoiy guruxga raxbarlik qilish, sport bilan shugullanish, bush vakti tashqil etish, tugaraklarga katnashish va xakozolardan iborat. Talabalik davri uspirinlikning ikkinchi vazifasidan iborat bulib, 17-22-25 yoshni tashqil etadi va uzining katlor betakror ijtimoiy psixologik xususiyatlari va karama-karshiliklari bilan harakterlanadi. Shu boisdan talabalik davri shaxsning ijtimoiy hamda nisbiy mavkei yoki pallasidan boshlanadi. Mazkur pallada talabalik davri o‘ziga xos ruxiy psixologik inkiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, jumladan kattalarning har xil kurinishdagi (uta yokish, yoki yokmasligidan kat'iy nazar) rollarni tez suratlar bilan bajarib kuyishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlariga kunika boshlaydi. Katta odamlarning turmush tarziga utish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog‘liq ichki karama-karshiliklarini keltirib chikaradi.

Pedagogik psixrologiya fanidan ma'lumki urta maktab o‘quvchilarni har jihatdan (biologik, fiziologik, pedagogik, psixologik) oliy maktab ta'limiga

tayyorlaydi va ularga umumlashtirish, mavxumlashtarish, dasturlashtikabi kobilyatlarga, kurinadigan fazilatlar namoyon buladi. Shu bilan birga, talabalik davrida psixologik xususiyatlar muayyan darajada akliy, axlokiy, estetik va goyaviy, siyosiy jihatdan sezilarli usish ruy beradi. Shunga kavramay talabalar oldida oliy o‘quv yurtiga mutaxassislikni egallashga bog‘liq yangi vazifalar paydo buladi. Xozirgi fan texnikaning uta tezkor rivojlanishi, bir tomondan axborotlarni, ma‘lumotlarni ko‘paytirsas, ikkinchi tomondan talabalarda uz mutaxassisliklariga oid bilimlariga barkaror kizikishning yukolishiga olib keladi, chunki kat‘iyatlitlik, ijodiy izlanish, irodaviy zur berish urnini, lokaydlik, faoliyatsizxlik egallaydi. Boshqacha aytganda ular tayyor axborotlarning kuliga aylanadilar. Chunki, kompyuter, diskplay, exm, konkulyatorlar noutbuklar, har xil sensor telefonlar, inson akliy mexnatini sustlanishini kursatadi. Shaxsiy xayotning mazmunini anglash, aniq turmush rejalarini tuzish, xayot yo‘lini belgilash shular jumlasidandir.

Talabalik davri asta-sekin kichik guruxning shartolariga kunikib boradi, talaba uzining xak-xukuklari va majburiyatlarini bila boshlaydi. Shaxslararo munosabatning yangicha kurinishini urnatadi. Turmushidagi ijtimoiy psixologik xususiyatlarni shakllanib borishini, shaxsan sinab kurishga intiladi. Talabalik davrida ketayotgan bir kancha romantik xis-tuyg‘ular vokelikka muayyan yondoshishga bir muncha xalikit beradi. Chunki ular turmushdagi yutuklar va muvaffaqiyatlarning ijtimoiy psixologik ildizlari nimavdan ekanligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bulmaydilar. Odam fiziologiyasi va psixologiyasi fanlarida tuplangan materiallar taxlilidan kurinadiki talaba 17-19 yoshda ham xulqi va bilim kobilyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bulmaydi va shunga kura xulq motivlarining asoslanmagani, uzokni kura olmaslik, extiyotsizlik kabi xollar ruy beradi. V.T. Lisovskiyning fikriga 19-20 yoshlarida ayrim salbiy xatti-harakatlar kuzga tashlanadi. Mazkur yoshida xoxish va intilishning rivojlanishi, iroda va karakterdan ancha ilgarilab ketadi. Bunda odamning xayotiy tajribasi aloxida rol uynaydi. Chunki talaba shu tajriba yetishmasligi natijasidan nazariya bilan amaliyotni, fantaza bilan reallikni, romantika bilan ekzotika, xakikat bilan

illyuziyani, orzu bilan xoxishni, optimizm bilan kat'iylikni aralashtirib yuboradi. Talabalik davrida yoshlarning xayoti va faoliyatida uzini-uzi boshqarishning tarkibiy qismlari uzini-uzi taxlil qilish, nazoratlashtiradi, ularni akliy zur berishdan xalos qiladi. Ana shular sababli oliy o'quv yurti ta'lim oldidagi muhim vazifa talabalarga dasturdagi bilimlar majmuasi berishdir.

Talabalik davrida mustaqil bilim olish, uz faoliyatini uzi tashqil qilish, uzini-uzi boshqarish, yangi goyalarini ishlab chikarish va xakozolarni urgatiladi. Bu vazifalarni amalga oshirishning asosiy ijtimoiy psixologik xususiyatlardan biri –monologik ma'ruzadan diologik (talaba va o'qituvchining muloqotiga asoslangan) leksiyaga utishdir. Psixologlardan B. G. Ananov, N. V. Kuzmena, N. R. Tolizina, V. P. Luandis, I. S.Kon, V.T. Lisovskiy, A.A.Bodolv, A.V.Petrovskiy, Z.F. Isariva, M.G. Davletshin, I.I. Ilasev, A.V Demtriva, A.A. Verbetskiy, V.A. Tokariva va boshqalarning tadkikotlariga kura, oliy o'quv yurtiga ta'lim olish talabalar uchun juda ogir kechadi, chunki talabalarning bu davrida shaxsning murakkab fazilatlari xislatlari, sifatleri takomillashish boskichida buladi. Mazkur talabalik davridagi ijtimoiy psixologik xususiyatlardan biri ukish faoliyatini ogli motivlari kuchayishidir.

Talabalik davrida axlokiy jarayonlarning usishi sust amalga oshsada, lekin xulqining eng muhim sifatleri, mustaqillik, tashabbuskorlik, topkirlik, farosatlilik va xakozalari takomillashib boradi. Shuningdek talabalik davrida ijtimoiy psixologik xolatlariga, vokelikka axlokiy koidalariga kizikish ularni amalga oshirishga intilish tabora kuchayadi. Psixologlarning tadkikotlari talabalik davrida, shaxs xayot tajribasini egallash va unga uzligini anglavsh, vujudga etish, baxolash, tekshirish va boshqalar ham aloxida ahamiyat kasb etadi. Ideal (yuksak barkarorlik, barkamol) «menmen» real(aniq vokeya) «men» bilan takkoslash orkali uzini-uzi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega buladi.

Talabaning nuktai-nazaridan ideal «men» ham muayyan mezon asosida yetarli darajada tekshirib kurilmagan shuning uchun ular goxo tasodifiy, goxo gayritabiiy xis etilishi mukarar, binobarin, real «men» shaxsning xakikiy baxosidan ancha yirokdir, talaba shaxsini takamilashuvida bunday obektiv karama-

karshiliklar uz shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni ukishga nisbatan salbiy munosabatlarni vujudga keltiradi.

Shu boisdan, munosabatlar motivatsiyasi nafaqat nazariy, balki, lug'aviy nuqtai nazardan ham olimlarning xilma-xil mulohazalari bilan karakterlanadi. (Moskvichev,1975; Xekxauzen,1986; Yakobson,1969; Arkes Garski,1982; Xaber,1966, Vernon,1969; Vund,1944; Vilyunas,1990 va boshqalar).

Albatta, har qanday faoliyatning orqasida insonning aniq yo'naltirilgan ehtiyojlari yotadi, chunki ehtiyoj – shaxsni o'rab turgan muhitga bog'liqligi, unga ma'lum ma'noda psixologik tobe ekanligini tushuntiruvchi talablar mavjuddir. Shu ehtiyoj ta'sirida paydo bo'ladigan faollikning turtkisi – motivdir. (J.K.Kenney, V.Kvinn, V.A.Karimova)

Motivatsiya esa mazkur ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan motivlar majmuasidir. Ijtimoiy psixologiyada motivatsiya fenomeni quyidagi uchta yo'nalishda ifodalanadi. (fiziologik, bixevioristik, psixologik)

Fiziologik qarashlar – ichki stimulyoki ma'lum ehtiyojlarning ahamiyatligini ta'kidlaydi. Masalan, yemishdan mahrum bo'lgan individ ochlikni his etadi va yegulikni izlab topishga va o'z fiziologik ehtiyojini qondirishga intiladi. Bu o'rinda ochlik, chanqoq va shu kabi mayllar muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, odatda "birlamchi drayv" deb hisoblanadi.

Bixevioristik qarashlarda esa motivatsiya jarayoni o'rgatish (o'qitish) orqali hulq – atvorda orttirilgan ichki stimullar bilan belgilanadi.

Psixologik qarashlarda konkret harakatlarga bizni undovchi "birlamchi drayv" konsepsiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan affiliatsiya jarayoni hamda shaxsning o'z – o'zini safarbar qilish ta'kidlanadi. (A.Maslou)

"Motiv" – tushunchasi psixologlar tomonidan bir qancha vaqtdan beri o'rganib kelinmoqda. U har xil hodisalarni ta'riflash uchun ishlatiladi. Motiv – termini psixologiyada instinktiv impulslar, biologik tuzatishlar, qiziqishlar, xohish, urinishlar, hayotiy maqsadlar, tuzilish, ideallar va shu kabi hodisalarning mohiyatini tushuntirishda ishlatiladi. Motiv zamirida harakatga bo'lgan turtki yotadi. Shuningdek psixologiyada motivatsiya termini ham qo'llaniladi. Odatda

uning zamirida odamlarning anglangan va anglanmagan (qisman anglangan) faoliyati davomidagi turtki kuchi yotadi. Shu bilan bir qatorda, motiv, shaxsning ichki kechinmalarini yuzaga chiqaruvchi o'z ehtiyojlaridan qoniqish hissini ko'rsatuvchi omil.

Motivlarning birgalikdagi ma'lum bir iyerarxiasini vujudga keltiruvchi va shaxsning yo'nalishini ko'rsatuvchi omil – bu motivatsiyadir. Motivatsiya – ahloqiy xatti – harakatlarni aniq maqsadga yo'naltirilgan turli xil maqsadlar ta'sirida o'zgaruvchi voqeliklarni ifodalaydi.

K.Obuxovskiy motivni «ma'lum faoliyatni yo'naltiruvchi maqsad dasturi» sifatida talqin qilsa, X.Xekxauzen esa «motiv bu – individ-muhit munosabati doirasidagi yo'naltirilgan harakatlarni izohlovchi jarayon» ekanligini asoslab beradi.

Kator psixologik tadqiqotlarda motivatsiya talqini shaxsning ijtimoiy shakllanishi jarayoni sifatida qaraladi. Jumladan, shaxs motivatsiyasi shaxs ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. (Zdravomuslov,1986, Leontev,1971; Milman,1982). Biologik motivatsiyasidan farqli o'laroq, shaxs motivatsiyasi jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'ladi. (Vvedenov,1956; Ollport,1976; Reynvald, 1974). Bu esa uning tarixiy o'zgaruvchanligini tasdiqlaydi (Bestujev,1974; Shoroxova, 1974; Donchenko va boshqalar,1984) va ontogeneza tarbiya tizimini shakllantirishga qaratiladi. (Chhartishvili,1974; Ivanchuk,1986; Simonov,1987). Umuman, munosabat motivatsiyasi haqida juda ko'plab xilma-xil ilmiy mulohazalar yuritish mumkin. Zero, bu jarayon munosabat motivatsiyasini har tomonlama chuqur va to'liq tahlil qilishning birmuncha murakkab ilmiy jarayoni hisoblanadi.

Zero, inson munosabatlari uning xulq-atvorida, ichki dunyosining shakllanishida, barcha psixologik jarayonlarida muhim boshqaruvchilik rolini o'ynaydi (V.N.Myasishev). Bunday boshqaruvchilikning yuksak ijtimoiy saviyada tarkib toptirilishi esa insonning hayotdagi ayrim muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan psixologik himoyalani vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin (SH.R.Barotov). Keyingi qator psixologik tadqiqotlar munosabat mezoniga shaxsning u yoki bu faoliyatga nisbatan motivatsiya mahsuli sifatida qarash tendensiyasiga asoslanadi.

Shu boisdan, munosabatlar motivatsiyasi nafaqat nazariy, balki, lugʻaviy nuqtai nazardan ham olimlarning xilma-xil mulohazalari bilan xarakterlanadi. (Moskvichev,1975; Xekxauzen,1986; Yakobson,1969; Arkes Garski,1982; Xaber,1966, Vernon,1969; Vund,1944; Vilyunas,1990 va boshqalar).

Albatta, har qanday faoliyatning orqasida insonning aniq yoʻnaltirilgan ehtiyojlari yotadi, chunki ehtiyoj – shaxsni oʻrab turgan muhitga bogʻliqligi, unga maʼlum maʼnoda psixologik tobe ekanligini tushuntiruvchi talablar mavjuddir. Shu ehtiyoj taʼsirida paydo boʻladigan faollikning turtkisi – motivdir. (J.K.Kenney, V.Kvinn, V.A.Karimova)

Motivatsiya esa mazkur ehtiyojlarni qondirishga yoʻnaltirilgan motivlar majmuasidir. Ijtimoiy psixologiyada motivatsiya fenomeni quyidagi uchta yoʻnalishda ifodalanadi. (fiziologik, bixevioristik, psixologik)

Fiziologik qarashlar – ichki stimul yoki maʼlum ehtiyojlarning ahamiyatliligini taʼkidlaydi. Masalan, yemishdan mahrum boʻlgan individ ochlikni his etadi va yegulikni izlab topishga va oʻz fiziologik ehtiyojini qondirishga intiladi. Bu oʻrinda ochlik, chanqoq va shu kabi mayllar muhim ahamiyatga ega boʻlganligi sababli, odatda “birlamchi drayv” deb hisoblanadi.

Bixevioristik qarashlarda esa motivatsiya jarayoni oʻrgatish (oʻqitish) orqali hulq – atvorda orttirilgan ichki stimullar bilan belgilanadi.

Psixologik qarashlarda konkret harakatlarga bizni undovchi “birlamchi drayv” konsepsiyasini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan affiliatsiya jarayoni hamda shaxsning oʻz – oʻzini safarbar qilish taʼkidlanadi. (A.Maslou).

A.V.Petrovskiy (1983)ning fikricha, qiziqishlar shaxsni bilim va tushunchalardan qoniqishga boʻlgan faollikka undaydi. B.I.Dodonov (1975) esa qiziqishlarga shaxsni faoliyatga undovchi hissiy faollik sifatida qaraydi. G.K.Cherkasov (1972) tomonidan qiziqish oʻz maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatini tanlashga qaratilgan subyektning faol munosabati sifatida talqin qilinadi. L.S.Vigotskiy (1984) qiziqishlar hissiyot va iroda imkoniyatlarining mahsuli ekanligini asoslab beradi. Binobarin, qiziqishlar turli olimlarning tadqiqotlarida oʻz ifodasini topganligini alohida qayd etish mumkin. Qiziqishlar

bilish jarayoniga oid ehtiyojlar mavjudligining namoyon etilishi sifatida, (A.V.Petrovskiy, A.N.Leontyev, A.G.Kovalev), protsessual va irodaviy-protsessual sifatlar majmui tarzida (B.I.Dodonov), kasbga yoʻnaltirishning manbai sifatida (A.YE.Golomshtok, 1979), obyekt-subyekt munosabatlari oʻrtasidagi ehtiyoj uygʻunligi (S.L.Rubinshteyn) sifatida tadqiq qilinadi.

Alohida tadqiqotlar borki, ularda qiziqish jarayoni bevosita munosabat jarayoni tarzida qaraladi. Hatto, psixologik lugʻatlarda qiziqish insonning olamga boʻlgan ehtiyojlari ifodalangan munosabati sifatida eʼtirof etiladi. Chunonchi, qiziqish bu, borliqqa nisbatan tanlangan va hissiy kechinmalar aks etgan insonning munosabatidir (S.L.Rubinshteyn). qiziqishning muhim jihati bu subyektning obyektga boʻlgan qatʼiy ijobiy-hissiy munosabatlar majmuidir. (P.A.Rudik, B.N.Dodonov, A.V.Petrovskiy).

Ijobiy-hissiy munosabatga aylanish jarayoni faqat ijobiy emotsiyalar asosida kechishi mumkin, qaysiki, unda ehtiyojlarning qondirilishi uning namoyon etilishiga nisbatan muhim asosiy oʻrinni egallaydi. Bu jarayonda qiziqish – mayl (munosabat) haqiqatan ham shaxsning motiv va motivatsion ustanovkalar tuzilishini eslatuvchi murakkab psixologik tushuncha hamda tamoyillarini oʻz ichiga oladi. (B.I.Dodonov, P.A.Rudik, N.D.Levitov, A.G.Kovalyev).

Deyarli barcha psixologlar shaxs yoʻnalganligini u yoki bu motivatsiya tushunchasi ifodalangan hodisaning bir butun majmui yoki tizimi sifatida tadqiq qiladilar. Jumladan, bu jarayon D.I.Dodonovda ehtiyojlar tizimi, K.K.Platonovda qiziqish, istak, mayl, xohish, ideal, dunyoqarash va eʼtiqodlar majmuining jalb etilganligi, L.I.Bojovich va R.S.Nemovda motivlar majmui yoki tizimi sifatida qaraladi.

V.S.Merlin shaxs yoʻnalishini oʻzgalarga, jamiyatga va oʻz-oʻziga munosabat tizimining namoyon etilishi, deb eʼtirof etsa, D.I.Feldshteyn (1995) esa shaxs yoʻnalishini bir necha tiplarga boʻladi. Jumladan, gumanistik yoʻnalish shaxsning oʻz-oʻziga va jamiyatga ijobiy munosabatlari bilan xarakterlanadi. Egoistik yoʻnalish shaxsning oʻz-oʻziga ijobiy munosabati va jamiyatga nisbatan salbiy munosabati bilan xarakterlanadi. Shaxsning depressiv yoʻnalishi shunday

xarakterlanadiki, unda shaxsning o‘zi o‘z qadriyatlari haqida hech qanday tasavvurga ega bo‘lmaydi. Shaxsning susidal yo‘nalishda shaxs faoliyatida hech qanday shaxsning o‘zi uchun ham, jamiyat uchun ham biror qadriyatlarni his etishga moslashtirilgan harakatlar sezilmaydi.

## **1.2.Psixologiya fanida motivatsiya muammosining o'rganilishi.**

Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli-tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o'ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo'lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va konsepsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g'oyalar va yo'nalishlar mujassamlashdi. Hozir ularning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Rus va sobiq sho'ro psixologiyasi namoyandalari K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.N.Myasishev, A.A.Uxtomskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, V.S.Merlin, L.I.Bojovich, V.I.Selivanov, V.G.Aseyev va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlari olib borgailar. Ushbu mualliflarning qarashlari oldingi hisobotda berilganligi uchun ularga qaytadan to'xtalishga hojat yo'qdir.

Yuqoridagilardan tashqari Yevropa va Amerika mamlakatlarida motivatsiyaga oid 30 (o'ttiz)dan ortiq ilmiy konsepsiyalar mavjuddir. Ana shu psixologik maktablarning ayrim namoyandalarining tadqiqotlari yuzasidan mulohaza yuritishga harakat qilamiz: interespektiv psixologiya, bixeviorizm, geshtalpsixologiya, psixoanaliz, strukturaviy psixologiya, assotsianistik psixologiya, empirik psixologiya, analitik psixologiya, gumanistik psixologiya, antropologik psixologiya va hokazolar.

Bixeviorizmning asoschisi DJ.Uotson (1878-1938) psixologiya faninig bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, ya'ni ichki va tashqiga ajratadi, ular o'zaro javoblar stimuli bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bixeviorizm uchun «xulq» asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab o'tilgandir. Shunga qaramasdan, ba'zi bixevioristlar, jumladan, E.Torndayk, E.Tolmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivatsiyasiga muayyan darajada e'tibor qilganlar. Ular o'zlarining izlanishlarida xulq motivatsiyasining «quyi darajalari»ni o'rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaksiya tezligiga nisbatan namoyon bo'lish

xususiyati, har xil sharoitda motivatsiyaning kuchi to'g'risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo'zg'atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevioristik nazariyalar yangi qo'zg'atuvchilar, doayvalar paydo bo'li-shiga asoslangan bo'lib, ular insonning organik ehtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg'unlashuvi tariqasida tahlil etiladi. Ularning ta'kidlashiga ko'ra, ikqilamchi qo'zg'ovchilar organik qo'zg'atuvchilarning go'yoki qobig'iga o'xshaydi, xolos. Vilyam Makdugall (1871 — 1938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug'ma instinktlar masa-lalari bilan mazkur voqelikni bog'lab tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikricha, tug'ma instinktlar ham insonlarga, ham hayvonlarga bir tekis taallukdi bo'lib, ular odamlarning motivida oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 tagacha «asosiy instinktlar» sifatida hukm surishi mumkin. Umuman olib qaraganda, bixevioristlar uchun bir qator holatlar o'ziga xoslikka ega:

Bixeviorizm motivatsiya modelini topish bilan shug'ullanib va xulq prinsiplarini vujudga keltira borib, hayvon xulqi hamda ularda kashf etilgan xulq motivatsiyasi qonuniyatlariga asoslanib, insonning xulq motivatsiyasi yuzasidan xulosa chiqarishga harakat qiladi.

Bixeviorizm insonni biologik mavjudod sifatiga qarab, unga biologik jabhada yondashadi, oqibat natijada uning ijtimoiy mohiyati tadqiqot predmetidan chetda qolib ketadi.

Bixeviorizm ham insonga, ham hayvonlarga xos bo'lgan xulqiing umumiy prinsiplarini topishga intiladi.

Bixevioristlar insonni shaxs sifatida taraqqiy etish jarayonini ifodalovchi o'ziga xosligini yo chetlab o'tadilar yoki o'ta sodda tarzda izohlashga moyildirlar.

Hayvonlarning xulq motivatsiyasi shakllarini juda sodda tarzda tushuntirishga asosan tadqiqot natijalarini insonning murakkab va boshqa bir sifat bosqichidagi motivatsiyasiga ko'chirish ishonchli dalillarga ega emas.

Inson motivatsiyasini o'rganishda foydalanilayotgan bixeviorizmning

tushunchalari, chunonchi, birlamchi mayllar, organizmni qitqlovchi tug'ma ehtiyojlar kabilar odamning motivatsiya doirasi tuzilishi mohiyatini juda yuzaki ocha oladi, xolos.

Psixoanalitik konsepsiyalar negizida motivatsiya ortganlik ravishda inson mayllariga xosdir, degan g'oya yotadi. Ularning manbai sifatida maylni aks ettiruvchi qaysidir organdagi yoki uning qismidagi somatik jarayon tushuntiriladi.

Z.Freydning konsepsiyasida mayllar va instinktlar tushunchalari o'rtasida hech qanday tafovut yo'qdir. Ongsizlik ta'limotining asoschisi Z.Freyd xulq motivalari va ehtiyojlari muammosini ishlab chiqayotir, motivatsiyaning manbai instinkt, u tur va individning saqlanish shartidir deb taqdirlaydi. Mazkur holatni muallif individning energetik potentsiya sifatida talqin etadi. Eng asosiy masala shuki, Z.Freyd motivatsiya regulyatori va motivatsiya energiyasining irsiy manbai sifatida «u» tushunchasiga qanday ma'no yuklamoqchi? Uningcha, «u» tushunchasining mazmuni tug'ma va o'zgarmasdir. Xuddi shu bois mantiq qonunlari va aql darajalari, ko'rsat-kichlari unga hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Z.Freyd affektiv, impulsiv shakldagi mutlakdashgan qo'zg'ovchilarni nazarda tutgan bo'lsa ajab emas. Ushbu qo'zg'atuvchilar (turtqilar)ning impulsivlik, taxminiylilikning affektiv mohiyati, notanqidiylilik, ongli va irodaviy nazoratga itoat etishda qiyinchilik kabilarning dinamik xususiyatlarini mutlaklashtirish bo'lib, ularning asosida quyi genetik va strukturaviy darajadagi qo'zg'atuvchilar yotadi. Z.Freyd ta'kidlab o'tgan dinamik xususiyatlar va xossalari mohiyatida motivatsiyaning chuqur asosiy manbasini ko'radi. Uning konsepsiyasida inson xulqi va harakatining dvigateli jinsiy instinkt hamda uning transformatsiyasi ustuvor o'rin egallaydi.

Ushbu mulohazani yanada mukammallashtirish maqsadida nofreydistlar hisoblanmish A.Adler, K.Yung kabilarning nazariyalarini tahlil qilishga o'tamiz. A.Adlerning fikricha, insonni harakatga undovchi asosiy kuch, uning faoliyati maqsadini aniqlovchi, ularga erishish yo'llari hukumatga va qudratga erkdir. Xorni, Fromm va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan ma'lumotlar mohiyati Freyd tomonidan kiritilgan psixika tushunchasi va uning

harakatlantiruvchi nazariyasini almashtirishga intilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Xorning nuqtai nazaricha, inson qanchalardir tug'ma kuchlarga ega bo'lib, uning negizi bolalarcha yordamga muhtojlikka qurilgandir, bu holatlar birlamchi bezovtalanish tuyg'usida va tug'ma qo'rqinch hissida o'z ifodasini topadi. Xorning ta'kidlashicha, inson xulqining motivatsiyasi boshqa motivlar yordami bilan aniqlanishi mumkin, jumladan, birlamchi bezovtalanish (bolalarcha yordamga muhtojlik keltiruvchi) atrof-muhitga nisbatan dushmanlik hissini tug'diradi, xavfsizlikka ehtiyoj esa insonni boshqa odamlar tomonidan baholash va o'z-o'zini baholashga nisbatan ichki intilishni vujudga keltiradi. Fromm ham o'z qarashlarida libido masalasiga katta e'tibor bermaydi, chunki uni qiziqtirgan muammo inson xulqi jabhalarda ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonidir. Insonni individualizatsiyalash unda tanholik hissini vujudga keltirishga olib keladi, shuningdek, o'z qadr-qiymatini anglash sari yetaklaydi. Tanholik hissiyotidan forig' bo'lishga intilish tuyg'usi inson motivatsiyasini va uning xulq shakllarini aniqpaydi. Neofreydistlarning ilmiy asarlarida inson xulqiga ta'sir qiluvchi intim omillariga va uning motivatsiyasiga muayyan darajada ahamiyat berilgan bo'lsada, lekin oqibat natijada xulqning harakatlantiruvchisi sifatida anglashilmagan tug'ma kuchlar asosiy o'rinda turadi.

Geshtalt psixologiya maktabi namoyandalari uchun motivatsiya o'ziga xos talqinga ega bo'lib, uning mohiyatini eksperimental tarzda o'rganishga, ochib berishga intilish ko'rsatkichi bilan boshqalardan ajralib turadi. K.Levin (1890—1947) motivlarni eksperimental o'rganish metodikasini ishlab chiqib, ularni mutlaqo mustaqil holat sifatida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshtaltpsixologiya maktabining namoyandalariga obraz tushunchasi qanchalik o'ta ahamiyatli bo'lsa, K.Levinning maydon nazariyasi uchun motiv kategoriyasi xuddi shunday muhim xususiyat kasb etadi. Obraz va motiv o'zaro aloqasiz hukm surishi ta'kidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli, ma'noviy mazmuni esa inkor qilinadi. K.Levin xulqni mana bunday izoxlashga intiladi, muayyan muvaqqatli mikroiintervalda shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlaridan kelib

chiquvchi voqelikdir. Uning mazkur nazariyasida insonda har xil ma'no anglatuvchi ikkita motivatsion o'zgaruvchi hukm surishi tan olinadi, ularning bittasi tug'ma, hayvonlar turtkisiga o'xshash va turmush davomida egallangan, faqat insongagina xos bo'lgan. Geshtaltpsixologlarning asarlarida shunday holatlar ham mavjudkim, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim (asosiy) xususiyatlarini tahlil qilish negizidan kelib chiqib qaraladi. Ushbu holat G.Ollport konsepsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi, uningcha, eng muhim jihat bu inson xulqini o'zgarish sabablarini ochishdir. Shuning bilan birga mazkur vaziyatga olib keluvchi motivlarning omillarini tekshirish ham alohida ahamiyatga ega ekanligini anglab olish qiyin emas. Bu borada individning javoblari o'ziga xosligi bilan o'zaro ta'sir o'tkazish o'rtasida qandaydir aloqa mavjudligini o'rnatish ham ikkinchi darajali narsa sifatida talqin qilinmaydi.

Sobiqsovet psixologiyasida inson xulq-atvorini harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan motivlar chuqur va yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Ularning psixologik mexanizmlari, uzluksizligini ta'minlovchi omillar, zarur shart-sharoitlar mohiyati, vujudga kelish imkoniyatlari to'g'risida juda yuzaki ma'lumotlargina muayyan darajada tartibga keltirilgan, tub ma'nodagi motivlar tabiati izchil ravishda, pedagogik va yosh psixologiyasi fanlari qonuniyatlariga asoslangan holda tadqiq qilinmagan. Bu esa respublikamizda ularning keng ko'lamda o'rganishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Motivlarning falsafiy-metodologik ahamiyati shundan iboratki, ular sabab oqibat, ichki murakkab bog'lanishlar tuzilishini yuksak darajada rivojlangan tizim sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv esa o'z navbatida materiya rivojlanishining oliy mahsuli ekanligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Chunonchi, maqsadga yo'naltirilgan va maqsadga muvofiqpashtirilgan har xil mazmundagi savollar, axborotlar, ma'lumotlar, xabarlar kishilar faoliyatining ongli xususiyati ta'kidlab o'tilgan mulohazalar mohiyati tarkibiga kiradi. Motivlar tuzilishini amaliy (tatbiqiy) yo'nalishga qaratish inson shaxsiga motivatsion, irodaviy, axloqiy, hissiy, kognitiv, regulyativ ta'sir o'tkazishning omilkor shakllarining ilmiy asosi yuzaga kelishiga muhim imkon va zarur shart-sharoitlar yaratadi. Insonning mehnat

faoliyati tizimining murakkablashuvi ishlab chiqarishda axloqiy, ma'naviy, nafosat, ruhiy tarbiya jabhalari hamda radio, televideniye va targ'ibot-tashviqot ta'sirini samarali olib borishi, kasbiy tayyorgarlikning ekstremal va stress holatlarning sharoitlari barqarorlashuvi, takomillashuvi, yaxshilanuvi, maqsadga muvofiqlashuvi kabi omillarning barchasi shaxs motiv doirasining o'zgarishiga bog'liq. Shaxsning motiv doirasi uning ehtiyojlarida, irodaviy sifatlarida (aktlarida) va funksional imkoniyatlarida o'z aksini topadi.

Motivning tadqiqot tarixidan kelib unga yondashsak, bu holda u insonlar (goho hayvonlar xatti-harakati) hayoti va faoliyatini ruhiy jihatdan boshqaruvchisi sifatida talqinidan iborat o'ziga xos turidir. Motiv tushunchasi, asosan, sut emizuvchi hayvonlarga taalluqli ekanligi ilmiy manbalarda ta'kidlab o'tiladi. Insonlarga aloqador motivlar tushunchasi qo'zg'atuvchilar va qo'zg'ovchilarning barcha turlari (ko'rinishlari, modalliklari, shakllari)ni o'z ichiga oladi (chunonchi, motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, intilishlar, motivlashgan ustanovkalar va boshqalar).

Motiv keng ma'noda xulq-atvor determinatsiyasi belgilanishiga qaramay, ko'pgina chet el tadqiqotchilari shaxs motivlarini juda tor ma'noda talqin qilib, uni ilmiy jihatdan tekshiradilar, hattoki ular shartsiz reflektor aktlarining miqdorini, affektiv, stress va ekspressiv reaksiyalarni motiv tizimiga kiritmaydilar. Bir qator psixologlar motivni energetik, ma'noviy va ma'naviy tomonlarini o'zaro solishtiradilar, ular motivni sof ma'nodagi energetik bioquvvat faolligining manbai sifatida talqin qilib, uning ma'noviy va ma'naviy jabhalarini hisobga olmay turib, o'ziga xos ravishda tushuntirishga intiladilar. Jumladan, Z.Freyd (856-1939) motivning qonun-qoidalarini faqat dinamik energetik holat tariqasida talqin qiladi. Bir guruh chet el psixologlarining fikriga qaraganda, motiv — bu tajriba va reaksiyalarning energetik jabhasidan iboratdir.

Sobiq sovet psixologlari motivlarni tushuntirishda va uning tarkibiy qismlarini belgilashda dinamik va ma'noviy (ma'naviy) tomonlarining uyg'unligidan kelib chiqqan holda talqin qiladilar. Ularning ayrim namoyandalari qarashlarini tahlil qilish bilan cheklanamiz, xolos.

S.L.Rubinshteyn motivning psixologik mohiyati to'g'risida quyidagi mulohazalarni bildiradi: motivatsiya — bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinatsiyadir; motiv — bu shaxs xulq-atvorining kognitivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi subektiv tarzda aks etish demakdir. Bizningcha, shaxs o'zining motivlari yordamida borliq bilan uzviy aloqada bo'ladi. Insonning xulq-atvori (xulqi)ni harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'luvchi motivlar shaxsning tuzilishida (tarkibida) yetakchi o'rin egallaydi. Motivning tuzilish (strukturaviy) tarkibiga shaxsning yo'nalishi, uning характери, emotsional holati (his-tuyg'usi), qobiliyati, ichki kechinmalari, faoliyati va bilish jarayonlari kiradi. Psixologiya fanida to'plangan nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, shuningdek, bir qator psixologlarning fikricha, karakter shaxs motivlarining dinamik tomonlari asosini tashqil qiladi, degan ta'limot mavjud. Jumladan, karakterning u yoki bu sifatlari sof dinamik xususiyatli tavsiflarni tashqil qilsa, qolganlari esa faqat dinamik tabiatinigina emas, balki uning ma'naviy va ma'noviy jabhalarini ham yuzaga keltiradi.

Motiv hissiyot bilan ham bog'liq bo'lib, ular xulq-atvor mohiyatidan tashqarida bo'lmaydi, balki hissiy kechinmalar, motivlashgan omillartizimi bilan uzviy aloqaga egadir. Hissiyotning eng muhim funksiyalaridan biri shundan iboratki, unda inson uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi daqiqalar uning uchun qanchalik zaruriyat ekanligini belgilashga xizmat qiladi. Hissiyotning bu sohadagi boshqa bir funksiyasi nisbatan umumiyroq bo'lib, odamning tashqi olamga, shaxslararo munosabatga, his-tuyg'ularga negizlik muammosi hisoblanib, uning uchun ahamiyatli voqea va narsalarga nisbatan bog'lovchilik xususiyatiga ega bo'lgan muloqoti zaif emotsional holatlar doirasidan tashqariga chiqib, faol, barqaror, turg'un jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi mulohazalardan tashqari, motivlar funksional-energetik tomonlarini dinamik boshqarish vazifasini amalga oshiradi.

Insonning qobiliyati bevosita motivlashgan mexanizmlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning muhitini belgilaydi va dinamik, ma'naviy ta'sir etish munosabatini o'zida aks ettiradi. Motiv bilan qobiliyatning munosabatlari psixik faollikning

bevosita bajarish negizi hisoblangan faoliyat orqali namoyon bo'ladi. Motivlashgan tizimning tarkiblarini amaliyotda ro'yobga chiqaruvchi nafaqat faoliyatnigina aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, balki faoliyatning keyingi istiqbol rivoji yoki uning boshqa sohalar bilan qorishib ketish ehtimoli darajasini ham belgilaydi. Lekin muayyan insonning funksional imkoniyati, faoliyati va xuddi shu faoliyatning obektiv tomonlarining yaqqol ro'yobga chiqishi motiv barqarorlashuvi, rivojlanish (takomillashuv)ga yo'nalganligi ham faoliyatning obektiv shart-sharoitiga moslasha boradi. Umuman shakllanish jarayoni, shaxsning rivojlanishi motivning faoliyatiga, faoliyatning esa motivga o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi, bizningcha, mazkur ta'sirning ko'rsatkichi, mezonni vazifasini bajaradi. Motivlarning rivojlanishi tufayli tarbiyaviy talablarni anglashda, ehtiyojlarni ichdan qayta qo'rishda xulq-atvor qoidalari, mezonlari yordami bilan faoliyat doirasining kengayishida, shaxsning borliq bilan munosabati kabilarda o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, motivlarning rivojlanishi, motivlashgan yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshiriladi. Motiv mexanizmi shaxs sifatlarini qayta qurish, ularni rivojlantirish jarayonining faollashuvi tarzida yuzaga chiqadi, shu bilan birga inson kamol topish jarayoniga, faoliyat muhiti va sharoiti asta-sekin yoki tez o'zgarishi motivlarning takomillashuvi, barqarorlashuvi kabi omillarga ta'sir etadi. Insonni mehnat faoliyatida qayta tarbiyalash va muayyan fazilatlarni shakllantirish yuqoridagi mulohazalar mohiyatidan iboratdir. Bu o'rinda faoliyat faol vaziyat hisoblanib, mavjud ehtiyojlar, qiziqishlar doirasidagi psixologik holatlardan uzoqlashib boradi, so'ngra yangi qiziqish, ehtiyoj va intilishlarni shakllantiradi, motivlar mohiyati va shakllarni o'zgartiradi.

Ushbu mulohazani alohida ta'kidlab o'tish joizki, motivatsiyaning faoliyat darajasidan tashqari chiqishi ehtimoli yoki faoliyatning motivatsiya doirasidan tashqari chiqishi imkoniyati to'g'risidagi talqinlar nisbiy xususiyatga ega. Binobarin, motivatsiya faoliyatdan tashqarida va faoliyat esa motivatsiyadan alohidalikka ega degan xulosaga kelmaslik maqsadga muvofiq. Bu holatni

yaqqolroq namoyish qilish niyatida quyidagi hayotiy haqiqatga murojaat qilamiz. Har bir talaba oliy maktabga o'qishga kirayotganida unda diplom olish motivi paydo bo'ladi, o'qishga joylashganda esa o'quv predmetlarini o'zlashtirish jarayoni o'qishga nisbatan intilish, ehtiyoj, qiziqish, safarbarlik kabi psixik omillar yuzaga keladi.

A.N.Leontevning fikricha, faoliyatning tuzilishi: maqsadga qaratilgan xatti-harakatlar va operatsiyalardan iboratdir. Odatda, faoliyat o'zining predmeti va motiviga ega bo'lib, agarda motiv bilan predmet (jism, narsa) o'rtasida mutanosiblik (moslik) vujudga kelsa, demak shundagina u tub ma'nodagi faoliyatga aylanadi. Masalan, bir talaba imtihondan (reytingdan) o'tish uchungina birlamchi manbalarni o'qiydi, lekin boshqasi esa o'zini tekshirish va haqiqiy bilimlarni egallash uchun dars tayyorlaydi. Birinchi holatda talaba yoki o'quvchida motiv imtihonga qaratilgan bo'lib, o'quv predmeti mazmuni bundan mustasnodir, xuddi shu boisdan uning faoliyati faqat xatti-harakatlar tizimidan iboratdir, degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Ikkinchi holatda esa motiv o'quv predmetini o'zlashtirishga qaratilganligi sababli uning intilishi faoliyatiga o'sib o'tadi (E.G'. kursiv bizniki: bu mezon vazifasini o'taydi), degan fikrga kelishga kafolat beradi.

## **II-BOB. Talabalar o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik xususiyatlari**

### **2.1. Talabalar o‘quv faoliyatining turlari va xususiyatlari**

Talabalar o‘quv faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti oliy O‘quv yurtidagi ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, diskomfort tuyg‘usini bartaraf qilish, mikromuhitda yuz beradigan ziddiyatlarning oldini olishdan iboratdir.

Odatda quyi kurslardagi talabalar o‘quv faoliyatini mumkin qadar to‘laroq tasavvur etishga harakat qiladilar, lekin uni boshqarish to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmaydilar. Ko‘pincha ular o‘quv faoliyatini boshqarish deganda, o‘quv materiallari o‘zlashtirilishini rejalashtirish, nazorat qilish, baxolash kabilarni tushunadilar. Talabalar varaqa savollariga bergan javoblardan ma’lum bo‘lishicha, ularda o‘quv faoliyati tizimini tasavvur etishdan tashqari, uni boshqarishning ayrim imkoniyatlari yuzasidan muayyan bilimlar ham buladi. Tajribada ishtirok etgan 730 nafar sinaluvchilarning 15 foizi shaxsiy faoliyatni boshqarish deganda o‘zlashtirilayotgan o‘quv materialarini ko‘p marta takrorlash jarayonini tushunadilar, uning bosh maqsadi matnning mohiyatini aniq anglashdan iborat deb biladilar. Masalan, "Materiallarni o‘zlashtirish uchun ularni ukiyman, takrorlayman, lekin hech qachon uni o‘zlashtirish maqsadida oqilona yo‘l, usul yoki vositalarni qidirib o‘tirmayman..." Talabaniing bu muloxazasi ana shu toifadagi barcha tengdoshlariga ham xosdir.

Ayrim talabalar o‘z javoblarida biror xususiyatga bulgan materiallarni o‘zlashtirishning usullarini ham yozganlar. Quyi kurs javoblaridan biri: "Men avval o‘quv materialini qismlarga ajrataman, so‘ng ular o‘rtasida antikiy uyg‘unlikni vujudga keltiraman, muhim va birlamchi alomatlarini topishga harakat qilaman. Mazkur materialni oldingisi bilan solishtiraman, o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlayman". Xuddi shunga o‘hshash javoblar talabalarning to‘rtidan bir qismidan olindi. Ularning 85 foizi o‘quv faoliyatini boshqarishning ayrim tarkibiy qismlarini ifodalay olganlar. Ammo ko‘pchiligi o‘quv faoliyatini boshqarishning umumlashgan usullarini ta’riflash, anglash, faoliyatning harakatlarini qanday

tartibda amalga oshirishni tasavvur qilishdan ancha yiroqdirlar. Shunga karamay, talabalarda takrorlash, reja tuzish, ma'ruza va birlamchi manbalarni konspektlashtirish bo'yicha ma'lum tushunchalar mavjud. Biroq, bu borada ham ayrim nuqsonlar uchrab turadi. Chunonchi, talabalar rejalashtirish, konspektlashtirish, ta'limiy usullardan foydalanishga quyiladigan umumiy talablarni aniq ko'rsatishda qiynaladilar, muammo doirasidan chetlashadilar va xokazo.

Mana shu qiyinchiliklarni mohiyati va shakliga ko'ra uch guruxga ajratish mumkin:

1. Bilishdagi qiyinchiliklar: o'rta maktab va oliy o'quv yurtidagi o'quv materiallarining mazmun va ko'lami jihatidan keskin farqlanishi; oliy o'quv yurtida o'qitishning turli shakl va usullari (ma'ruzalar, seminar mashg'uloti, kollokvium, sinov, baxs, amaliy mashg'ulot, maxsus praktikum, maxsus seminar, maxsus kurs va xokazolar) mavjudligi o'quv matni, ma'ruza va seminar materiallarining murakkabligi, muammoligi, ilmiyligi, talabalarda mustaqil bilim olish malakalari yetishmasligi; ularning murakkab oliy ta'limga tula tayyor emasligi.

2. Ijtimoiy-psixologik kiyinchiliklar: atrof-muhit va xayot sharoitining o'zgarishi; hayot va faoliyatning barcha jabxalarida mustaqillikka o'tilishi: irodaviy zo'r berish, qobiliyat, aqliy imkoniyatlar buyicha qat'iyatsizlik: masalan, sessiyalarda, o'qishdan xaydalishdan cho'chish, qo'rqish, xavfsirashning paydo bulishi.

Kasbiy qiyinchiliklar: oliy o'quv yurti mutaxassisligini tanlashdan ikqilanish; oliy maktab shart-sharoitlariga moslashish jarayonini noto'g'ri tasavvur qilish; ta'lim olish usullari va vositalarining ko'nikma, malaka va odatlarini egallashda orqada qolish, turli xususiyatga ega bo'lgan mutaxassislik — ixtisoslik amaliyotidan unumli foydalana olmaslik; nazariy bilimlar bilan amaliyotning ajralib qolgani; talabalarning professiogrammadan xabarsizligi yoki professiogramma talablariga javob beradigan kasbiy fazilatlariga ega emasligi.

1. Mana shu kiyinchiliklarning barchasi oliy maktab muhitiga moslashish bilan bog'likdir. Tajribadan ma'lumki, oliy maktab muhitiga moslashishda talabalarning o'ziga xos tipologik va yosh xususiyatlari, aqliy imkoniyatlari, aql-zakovati, axloqiy fazilatlarini, etnik alomatlarini ma'lum darajada rol o'ynaydi.

Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Ya'ni, maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar paydo bo'ladi va aynan ularning tabiati va zaruratiga bog'liq tarzda hulq motivlari namoyon bo'ladi. Misol uchun talabaning o'quv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilm olish, qiziquvchanlik ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma'lum bir davrida, masalan, bog'cha yoshidan boshlab qoniqtirila boshlaydi. Bolaga sotib olib berilgan kitoblar, daftar va boshqa o'quv qurollari, ma'lum ta'lim maskanida tashkil etilgan shart-sharoitlar va u yerdagi bevosita bilim olishga qaratilgan faoliyatning o'zi, bola uchun motiv o'rnini bosadi. Yana bir oddiy misol qo'lingizda kitob bor. Siz holi uni o'qishni boshlamadingiz. Lekin o'qish istagi bor, bu istakning ortida esa o'sha mazmunni bilish va uning tagiga yetish ehtiyoji turadi. Rus olimi R.Nemov. shaxsdagi motivatsion soxasi qo'yidvagicha tasavvur qiladi.

Umuman, har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

Biologik ehtiyojlar- bu –fiziologik (tashnalik, ochlik, iyqu), jinsiy moslashuv, ehtiyojlari.

Ijtimoiy ehtiyojlar- bu – mehnat qilish, bilish, estetik va ahloqiy –ma'naviy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo'lganimiz bilan shu narsani ununmasligimiz lozimki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo'ladi, ya'ni, ular o'sha jamiyat va mohiyatdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar harakteriga bog'liq bo'ladi. Masalan, eng tabiiy va tushunarli hisoblangan bizning yemishga, ovqatga bo'lgan ehtiyojimizni olsak, u ham konkret muhitga qarab turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. yana misol uchun, to'y marosimlari yoki juda tukin dasturxon atrofida o'tirgan odam nima

uchun shunchalik ko'p ovqat iste'mol qilib yuborganini bilmay qoladi. Agar bu tabiat qo'yni yoki paxta dalasidagi xashar bo'lsa-chi, bir turda issiq non ham butun tanaga rohat baxsh etuvchi malham bo'lib, ochlinni bilintirmaydi. Kamtarona dasturxondan ovqat yeb o'rgangan kishi oz-oz yeyishga o'rgansa, yoshligidan normadan ortiq yeb o'rgangan odam vrach oldiga borib, o'zi uchun ozdiruvchi dori-darmon so'rasa, so'raydiki, lekin uyda o'zi yemishini nazorat qilishi kerakligini bilmaydi. Demak, bu ham madaniyatga, etikaga, oila muhitiga bevosita bog'liq narsa ekan-da.

Umuman shaxs ijtimoiy xulqi motivi haqida gap ketganda, uning ikki tomoni yoki elementi ajratiladi: harakat dasturi va maqsad. Harakat dasturi maqsadga erishishing vositalariga aniqlik kiritadi. Shuning uchun ham dasturda nazarda tutilgan vositalar maqsadga erishishni oqlashi kerak, aks holda dastur hech narsa bema'ni. Masalan, ba'zi ota-onalar farzandlarini yaxshi tarbiyalash va undan ideallaridagi shaxs yetishib chiqishini orzu qilib, uning oldiga juda og'ir tarbiyaviy shartlarni qo'yadilar, bola erkinligi bo'g'iladi, u qat'iy nazorat muhitida ushlanadi. Oqibatda bola keyinchalik boshqarib bo'lmaydigan, qaysar, unchamuncha tashqi ta'sirga berilmadigan bo'lib, qolib, har qanday boshqa ijtimoiy sharoitda qiynaladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham motiv har doim anglangan, ehtiyojlar muvofiqlashtirilgan va maqsadlar va unga yetish vositalari aniq bo'lishi kerak. Shundagina ijtimoiy xulq jamiyatga mos bo'ladi.

Boshqacha xulq-atvorni muvaffaqiyatsizliklardan qochish motiviga tayangan shaxslarga kuzatish mumkin. Masalan, ular birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni o'ylaydilar. Shu tufayli ularda kuproq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik pessimizmga o'xshash holat kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oxir-oqibat ular baribir muvaffaqiyatsizlikka uchrab «O'zi sira o'ladim yurishmaydigan odamman-da» degan xulosaga keladilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffaqiyatli tugatgach, ko'tarinki ruh bilan ikkinchi ishga kirishishsa, ikkinchi toifa vakillari, har qanday ishni yakunlangandan so'ng, uning natijasidan qat'iy nazar, ruhan tushkunlikka tushadilar va og'rinish hissi bilan

boshqa ishga kirishadilar. Bu o‘rinda talabchanlik degan sifatning roli katta. Agar muvaffaqiyatni yo‘nalgan shaxslarning o‘zlariga nisbatan qo‘ygan talablari darajasi ham yuqori bo‘lsa, ikkinchi toifa vakillarining talablari aksincha, past bo‘ladi. Bundan tashqari har birimizdagi o‘zimizdagi real qobiliyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlarimiz ham ushbu motivlarning faoliyatdagi o‘rniga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘zidagi qobiliyatlarga ishongan shaxs hattoki, mag‘lubiyatga uchrasa ham, unchalik qayg‘urmaydi, keyingi safar hammasi yaxshi bo‘lishiga ishonadi. Ishonchsiz shaxs esa kichkina berilgan tanbeh yoki tanqidni ham juda katta ruhiy azob bilan qayg‘urib boshdan kechiradi. Uning uchun ham shaxsning u yoki bu vaziyatlarda qayg‘urish sifati ham ma’lum ma’noda motivlar xarakterini belgilaydi.

Shunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning iehnatga, odamlarga va o‘z-o‘ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi harakter xususiyatlarini ham belgilaydi. Ularning har birimizda real shart-sharoitlarda namoyon bo‘lishini biror mas‘uliyatli ish oldidan o‘zimizni tutishimiz va muvaffaqiyatlarga erishishimiz bilan baholasak bo‘ladi.

O‘rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aynan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘quv faolligiga munosabatning shakllanish jarayonini yanada chuqurroq tahlil qilish va uning o‘ziga xos bo‘lgan ijtimoiy psixologik xususiyatlarni aniq yo‘naltirilgan tadqiqotlar asosida ochib berish, bugungi kunda ta’lim–tarbiya muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Darhaqiqat, bugun har jihatdan omilkor, mas’uliyatli, tashabbuskor va jamiyat taraqqiyoti uchun ongli – faol ijtimoiy shaxsni tarbiyalash, undagi ilmiy salohiyatni to‘g‘ri yo‘naltira olish nafaqat ta’limning, balki butun bir davlatning ham kelajak taraqqiyotiga daxldor bo‘lgan muhim vazifalardan biridir.

Qolaversa, O‘zbekistonda kechayotgan bugungi keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, beto‘xtov shakllanayotgan bozor munosabatlari, fan, texnika va ishlab chiqarishning keskin rivojlanishiga javob bera oluvchi jamiyat va shaxs ehtiyojlarining o‘zaro uzviy mutanosibligini ta’minlash har bir davr va davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan Sharq allomalarining (Arastu, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar) o'nlab asarlarida ta'kidlanganidek, o'rta asrlardayoq, ayniqsa, bizning hududlarimizda diniy maktablar, madrasalarga tolibi ilmlarni tanlab olish, ularning aqliy taraqqiyot darajasini, birlamchi bilim va malakalarini, kasb yoki san'atning alohida turiga moyilligi hamda ichki munosabatining namoyon etilishini hisobga olgan holda amalga oshirilgan.

Darhaqiqat o'quvchi shaxsini ongli ravishda o'quv faoliyatiga yo'llashda birlamchi omil - bu shaxsning ichki imkoniyatlari, qiziqishlari, iqtidori hamda ehtiyojlari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan o'quv jarayonini tashkil etishda subyektning (o'quvchining) ichki pozitsiyasini (motivatsiyasini) va unga ta'sir etib turuvchi tashqi muhit bilan mutanosiblik jihatlarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, o'quvchi o'quv-faolligiga yo'naltirish jarayonining obyekt bo'lsa-da, umumiy o'zlikni anglash, ongli munosabat jarayonining subyektini hisoblanadi. qolaversa, bugungi ilmiy matbuotdagi ma'lum nazariy va empirik ma'lumotlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, o'quvchi shaxsi o'quv faoliyati jarayonida ham obyekt, ham subyekt sifatida ishtirok etadi. Uning bu ishtiroki markazida esa to'liq ma'noda munosabat motivatsiyasi tizimi shakllanishining o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlari yotadiki, bu xususiyatlar ko'lamini nazariy va empirik jihatdan tahlil qilish hamda shu asosda tegishli ijtimoiy psixologik tavsiyalarni ishlab chiqish masalasiga jiddiy e'tiborni qaratish tadqiqotimizning asosiy maqsadini tashkil etadi. Bu borada Sharq allomalarining va ilg'or psixologiya fani vakillarining juda ko'plab ilmiy fikr-mulohazalari yuqorida bayon etilgan. E'tirof etish kerakki, yuqoridagi fikr-mulohazalarda munosabat motivatsiyasining tarixi, buguni va kelajagi haqida qator nazariy mulohazalar va mushohadalar asosli ravishda bayon etiladi. Ayniqsa, bu borada O'zbekistondagi olimlar tomonidan ham bugungi kunda olib borilayotgan psixologik tadqiqotlar ko'lamiga va taraqqiyotiga alohida urg'u berish mumkin. Albatta, o'quv faolligi masalasi keng qamrovli jarayon bo'lganligi uchun uning juda ko'p qirralari yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar orqali ochib beriladi. Aytish mumkinki, bu borada juda ko'plab

psixologlar, pedagoglar, faylasuflar, sotsiologlar va boshqa soha vakillari tomonidan tahsinga sazovor ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Lekin, shunday bo'lsa-da, aynan o'quv faolligiga munosabat tizimining shakllanishi, uning o'ziga xos ijtimoiy psixologik iyerarxiyasi va motivatsiyasi shakllanishining bugungi yutuqlarimizga mos qirralari haqida batafsilroq tadqiqotlar olib borilishiga bo'lgan ehtiyojining tobora ortib borayotganligini ham sezmaslik mumkin emas.

Chunki, o'quvchi shaxsining o'quv jarayoniga bo'lgan real ichki (pozitiv), munosabat motivatsiyasi imkoniyatlarini chuqur o'rganmay yoxud tahlil qilmay turib, shaxs taraqqiyoti mushtarakligini va uning ijtimoiy maqsadlar mutanosibligiga mos tarbiya yo'nalishlarini belgilab bo'lmaydi. Mazkur tadqiqot ishida munosabat motivatsiyasi tushunchasini asoslashga qaratilgan nazariy-ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlilini bayon qilish maqsad qilib quyildi. qolaversa, bu muammoning qo'yilishi o'quv faolligiga munosabat motivatsiyasi bilan bog'liq nazariy tushunchalarga ma'lum darajada bo'lsa-da, oydinlik kiritishi mumkin, deb o'ylaymiz. qo'yilgan ushbu vazifaning bajarilishi tadqiqotning birinchi bobida o'z ifodasini topgan. Zero, bizningcha, o'quv jarayoni va unga munosabat bir-biridan ajralgan, alohida narsa emas, balki, ular bir-birini to'ldirib turuvchi hamda yagona maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy psixologik jarayon hamdir.

## **2.2. Talabalar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar**

Talabalarda munosabat motivatsiyasining shakllanishiga xizmat qiluvchi omillarni aniqlash tadqiq qilish va shu orqali ular bilan olib boriladigan ta'lim tarbiya ishlarini tashqil etish, ta'lim samaradorligiga aniqrog'i, o'quvchi shaxsiga va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga ijobiy ta'sir etadi. Chunki, har bir o'quvchi shaxsidagi o'quv faoliyatiga nisbatan kechayotgan ichki va tashqi munosabat motivatsiyasini shakllantiruvchi jihatlarni tahlil qilish orqaligina o'quvchi shaxsiga, uning faoliyatiga to'g'ri baho berish mumkin, deb o'ylaymiz. Shu nuqtai nazardan, Respublikamizdagi qator umumta'lim maktabalarining boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyati chuqur o'rganildi va tegishli tadqiqot talablari asosida tadqiq qilindi. Ish vazifalaridan kelib chiqib, mazkur paragrafda boshlang'ich sinf o'quvchilarida maktabga va o'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasining bevosita shakllanish jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy – psixologik omillarni o'rganish hamda maxsus yo'naltirilgan metodikalar yordamida munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlarini aniqlash masalasi qo'yildi.

Albatta, bitta tadqiqotning o'zida mazkur masalaga to'liq va batafsil baho berish juda qiyin, shunday bo'lsada, biz o'z tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, shartli ravishda qabul qilingan munosabat motivatsiyasi mezonlari yordamida maxsus usullarni qo'llash orqali (har bir usulni qo'llashning to'liq bayoni ikkinchi bobda qayd etilgan) boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganishga, tahlil qilishga va shular asosida tegishli ilmiy xulosalar chiqarib, amaliy tavsiyalar berishga harakat qildik.

Endi, bevosita kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda maktabga va o'quv faoliyatiga asoslangan munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlari tahliliga o'tamiz. Maktabga munosabat motivatsiyasi metodikasi talabalari asosida qo'lga kiritilgan empirik natijalar ikkinchi va to'rtinchi sinf o'quvchilari orasida turli xil miqdorlarga ega. Albatta buning o'ziga xos ijtimoiy – psixologik sabablari va qonuniyatlari bo'lishi tabiiy. Zero, keltirilgan raqamlar interpretatsiyani ochib berishdan asosiy maqsadimiz esa kichik maktab yoshi davrida shakllanayotgan o'quv faoliyatiga munosabat tizimi iyerarxiyasi va ma'lum dinamik ko'rsatkichlar

ifodalangan o'ziga xos ijtimoiy – psixologik qonuniyatlarni belgilash va baholashdan iboratdir. Shunga ko'ra mazkur metodika natijalarini tahlil qilganda quyidagi prinsplarga asoslandik.

1. Ilmiy matbuotda ma'lum bo'lgan maktabga munosabat motivatsiyasi metodikasi (manba: Luskanova N.G Metodi issidavaniya detey s trudnostyami v obuchenii – M. 1993,) talablari va mahaliy muhit mutanosibligiga rioya qilgan holda empirik materiallarni yig'ish va qayta ishlash

2. Munosabat tizimi va uning motivatsion shakllari (faol – ijobiy, ijobiy, indefferent) ta'rifini ifodalashga xizmat qiluvchi mezonlarni belgilash va shu mezon mazmuniga mos raqamlar joylashuviga jiddiy e'tiborni qaratish

3. Jadvaldagi barcha raqamlarning birlamchi asoslari (kontent – tahlillar, individual va guruhli savol – javob hamda suhbat natijalari) qayd etilmagan bo'lsada, raqamlar interpretatsiyasini berishda ulardan ham o'rni bilan foydalanish

4. Umumiy barcha raqamlar tahlilini qayd etishda tegishli ijtimoiy – psixologik qonuniyatlarga va statistik mezonlar talablariga qat'iy rioya qilish

Yuqoridagi talablarga amal qilgan holda maktabga munosabat motivatsiyasi metodikasini qo'llash orqali qo'lga kiritilgan empirik ma'lumotlar interpretatsiyasiga o'tamiz. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning maktab faoliyatiga bo'lgan munosabatlari motivatsiyasi o'ziga xos harakterga ega bo'lib, ularni aksariyat hollarda “faol - ijobiy”, “ijobiy” hamda “indefferent” mezonlar bo'yicha talqin qilish o'rinlidir. Shuningdek, o'quvchi shaxsini kichik maktab davri o'zining ichki ijtimoiy motivatsiya yo'nalishiga nisbatan, yosh, individual, xududiy va etnopsixlogik imkoniyatlar va tafovutlar ko'lamining mavjudligi bilan baholanadi. Bu baholash o'quvchi shaxsi tomonidan maktab yoki o'quv faoliyatini qanday tushunish uning ichki hissiy kechinmalariga bog'lash, ayni paytda hissiy – irodaviy sifatlarning namoyon etilishi bilan ham bevosita bog'liq ekanligi yaqqol seziladi.

Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o'quv-tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda talabalarning mustaqil ishlari muhim o'rin egallaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday o'quv

faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko`nikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta`minlanadi. Bu esa amaliyotda xususiy-didaktik maqsadlarga bog`liq ravishda 4 ta mustaqil ish tipida amalga oshadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining birinchi turi- bu sirtidan qaraganda faoliyatning algoritmi ma`lumotlari va vazifalar sharoitidan iborat, ya`ni dastlabki bilimlarning (bilimlarning birinchi bosqichi) shakllanishi omillari asosida talabalarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir. Bu maqsadga yetish uchun talabalar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarni yechish zarurligi ko`zda tutiladi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining ikkinchi tipi. Bunda o`zlashtirilgan axborotlar xotirada qayta ishlashga va tipik vazifalarni, ya`ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi.

Bu maqsadga idrok qilinadigan masalalarni yechish chog`ida talabalardan yo tanlab olingan faktlarni tavsiflash asosida obektlar va hodisalarni aniq bayon qilish yoki o`rganilayotgan obekt va hodisalardagi o`zgarishlarning sababini asoslash hamda uni ifodalash orqali yetish mumkin. Unisini ham, bunisini ham talabalar avval egallagan, shakllangan bilimlar tizimini to`g`ri jalb qila olishi va faollashtira olishi asosida bajarishi lozim. Talabalarning bilish (idrok qilish) faoliyati avval o`zlashtirilgan o`quv axborotining mazmuni, tuzilmasini qayta ishlash, qisman qayta loyihalash va yangilashdan iborat bo`ladi. Bunday qayta loyihalash va yangilash tavsif qilinayotgan obektni taxlil qilish, vazifani turli yo`llar bilan bajarish, ulardan eng to`g`ri yoki mantiqiy izchilligini topish kabi yechish usullarini tanlash zarurligini keltirib chiqaradi.

Mustaqil ishlarning ikkinchi tipi barcha turlarining umumiy tavsifnomasi shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g`oyasi (tamoyili) e`lon qilinadi, talabalardan ushbu g`oyani (tamoyilni) rivojlantirib, konkret sharoitga tatbiq etish usul va usullari talab qilinadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining uchinchi tipi talabalarda uchinchi bosqich-tipik bo`lmagan vazifalarni bajarish chog`ida

shakllanadigan bilimlardan iboratdir.

Bu maqsadga talabalardan o`rganilayotgan obektda o`zgarishlar sabablarining algoritm asoslarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini yechish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlarning uchinchi tipini bajarishdagi bilish faoliyati umuman olganda bilim, malaka, ko`nikmalarni ko`chirishni amalga oshirish yo`li bilan avval o`zlashtirilgan va qolipga tushgan (muayyan algoritm harakatlari tajribasi) tajriba asosida yangi faoliyat tajribasini to`plash va namoyon qilishdan iborat bo`ladi. Bu tipdagi ishlar vazifasining mohiyati izlanish, yechimlar g`oyasini ifoda qilish, amalga oshirishdan iboratdir. Bu qolipga tushgan tajribalar doirasidan doimo chetga chiqadi va fikrlashning jonli jarayonida talabalardan topshiriqlarni avval o`zlashtirilgan o`quv axborotlari, ularga yangi nuqtai nazardan yondashish (muayyan topshiriqlar talablari nuqtai nazaridan) asosida turlanadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining to`rtinchi tipi ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir.

Bunday ishlarni bajarishdagi talabalarning bilish faolligi shundan iboratki, bunda talabalar muhokama qilinayotgan obekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur bo`lgan yangi, oldindan noma`lum bo`lgan g`oyalarni topish va yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo`lgan yangi aloqalar munosabatlarni o`rnatadi. Bunda talaba vazifalarni bajarishning har bir bosqichida o`zi yaratishi lozim bo`lgan, uning uchun yangi bo`lgan harakatlar mohiyati, u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo`ladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

- namunalar bo`yicha mustaqil ishlar;
- rekonstruktiv-yeariatiye;
- evristik (qisman, ijodiy);
- Tadqiqiy mustaqil ishlar
- ijodiy tadqiqot.

Namunalar bo`yicha mustaqil ishlar tipik vazifalarni, turli mashqlarni namuna

asosida yechishdir. Ular materialni o`zlashtirishga omil bo`ladi, lekin talabalarning ijodiy faolligini o`stirmaydi;

Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala, muammoni yechishda mavjud bilimlarni jalb qilishni ko`zda tutadi.

Evristik mustaqil ishlar ma`ruza, laboratoriya, amaliy mashg`ulotlar, seminarlarda qo`yilgan ayrim masala, muammolarni hal qilish bilan bog`liqdir.

Tadqiqiy mustaqil ishlar tadqiqot muammosini ko`ra olish malakasini, uni mustaqil ifodalay olish, farazni belgilab olish, muammoning hal qilinish rejasini ishlab chiqish, uni hal qilishni mo`ljallaydi.

Ijodiy tadqiqot ishlar bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo`ladi. Talaba o`z faoliyatida tayyor namunalardan ozod masalaning hal qilinish yo`llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo`yish, jihozlar, maketlar va loyihalash bilan bog`liq bo`lgan vazifalar kiradi.

Shunday qilib, mustaqil ishlar o`qitishning eng muhim metodi bo`lib, unda talabalar mashg`ulotlarga tayyorlanish, olingan bilim, malaka va ko`nikmalarni mustahkamlash jarayonida ularning individual faolligi oshadi.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteri;
- mustaqil ravishda o`z bilimlarini yanada oshirib borishga bo`lgan ehtiyojning shakllanishi;
- mustaqil ishlar yeazifalarini individuallashtirish;
- mustaqil ishlarni tashkil etishga metodik rahbarlik qilish.

Oliy maktabdagi o`quv jarayoni mustaqil tahsilni tashqil etilishini ham ko`zda tutadi. Talabalarning mustaqil tahsili ularning o`z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko`nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o`zlashtirishga bo`lgan intilishi sifatida qaraladi.

Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi talabalarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini

o`stirishdir.

Mustaqil tahsilning vazifalari: shaxsning intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g`oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish.

Oliy maktabdagi o`quv jarayoni mustaqil tahsilga bo`lgan ehtiyojni shakllantirishga yo`naltirilgan bo`lishi va talabalarning o`z-o`zini baholay olishini, ularning tayyorgarligini, yangi bilimlarni egallashga bo`lgan ongli munosabatini aniqlab berishi kerak. Mustaqil tahsil bo`yicha mashg`ulotlarning izchilligini va maqsadga muvofiqligini ta`minlash maqsadida uning rejasi tuziladi.

Rejaga quyidagi talablar qo`yiladi:

- rejalashtirilayotgan ishlarning hajmi va oldinma-ketinligi;
- ularning bajarilish muddatlari;
- mustaqil faoliyatning har bir turiga maqsadli ko`rsatmalar berish.

Mustaqil tahsil jarayoni uning aniq shakli, vositalari va usullarini qamrab olishi shart.

Mustaqil tahsilning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to`g`ri baho berish, ushbu axborotdan o`zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo`lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatida zarur bo`ladigan sifat ko`rsatkichlarini ta`minlaydi.

Shuningdek, mustaqil tahsilga amaliy ahamiyatga molik bo`lgan vazifalarni bajarish va audiovizual uskunalarni bilan ishlash ham kiradi.

Mustaqil tahsilning muhim metodlaridan biri ularning muloqotidir. Mustaqil tahsilning pirovard maqsadi talabalarni ijodiy izlanishga, o`zi ustida ishlash, har tomonlama tadqiqot yuritishning mohiyatini anglashga tortishdir.

### **2.3. Talabalarda o'quv motivatsiyasini shakllantirish yo'llari**

Oliy maktabda hamkorlikdagi faoliyatning shakllanishi, uning ijtimoiy-psixologik jihatini tashqil qilish, har qanday faoliyatni, shu jumladan, o'quv faoliyatini tashqil qiluvchi tarkibiy qismlarni o'rganish so'nggi o'n yillarda amalga oshirila boshlandi.

B.F.Lomov faoliyatni taxlil etishning umumiy psixologiyada qabul qilingan sxemasini ko'rib chiqib, bu faoliyatni bajaruvchi shaxsning boshqa shaxslar bilan hamkorligi boshqacha qurilishi zarurligini ta'kidlab o'tadi. Yakka shaxs faoliyatining psixologik taxdili faoliyat subyektining boshqa odamlar bilan aloqasini mavxumlashtiradi. Lekin bu mavxumlashtirish nihoyatda muhimligidan qat'inazar, o'rganilayotgan hodisalarni bir tomonlama yoritish imkonini beradi.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratilgan, o'qitishni guruhviy tashqil qilish jarayoni bayon qilingan.

A. V. Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashqil qilish fakat ularning muloqotga ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta'kidlagan edi.

Bu muammoga boshqacharak yondashgan A. A. Bodalev o'qituvchi bilan o'quvchining munosabati ularning samarali hamkorligini vujudga keltirish uchun qulaylik yaratishi zarur deb hisoblaydi. Buning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning shaxs sifatidagi xususiyatlarini, maqsad va ehtiyojlarini hisobga olishlari shartdir.

Yuqoridagi fikrlarga qaramay, o'zlashtirishning turli bosqichlarida o'qituvchi bilan o'quvchilarning turli hamkorligi qanday uyushtirilishi masalasi hal bo'lgan emas. Binobarin, o'qituvchida o'quv faoliyatini hamkorlik asosida tashqil qilish kunikmalari yo'qdigi qator muammolarni keltirib chiqarmokda.

Hamkorlikdagi maxsuldor faoliyatni psixologik jihatdan o'rganishni V.YALyaudis boshchiligidagi psixologlar guruxi amalga oshirdi. Uning asosiy

maqsadi yangi psixik fazilatlarni shakllanishida o'qituvchi bilan talaba hamkorligining rolini ifodalash edi. Ushbu nazariyaga binoan, o'quv faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishning negizi emas, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini egallash jarayonidir. Mazkur nazariya asosida o'quv vaziyatini talaba shaxsining rivojlanishidagi "yaqin kamolot zonasi"nigina emas, balki "persektiv rivojlanish zonasi"ni ham yaratadigan yusinda loyihalash mumkin.

V.Y.Lyaudis o'quv vaziyati tarkibidagi 4 ta o'zgaruvchan holatni ko'rsatadi: a) tashqiliy o'quv jarayonining mazmuni (uning xususiyati o'quvchi o'zlashtiradigan faoliyat dasturli, egallanadigan bilish faoliyatining turlari; b) ta'lim mazmuni va o'quv faoliyati usullarini o'zlashtirish: bir bosqichdan boshqasiga o'tish tartibi, v) talaba bilan o'qituvchining uzaro ta'siri va hamkorlik tizimi; g) ta'limdagi o'zgaruvchan omillarning o'zaro aloqasi takomillashuvi.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va talabalarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan talaba hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati (o'qituvchi va talaba munosabatlarning va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish obyektini, bilish faoliyatining barcha qismlarini kayta qurishni ta'minlaydi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli talabalar mustaqil xolda ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikda shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan talabaning birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday hatti-harakatlar o'qituvchining talabaga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi, talabalarning faolligi asta-sekin o'sa borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi, o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi munosabat esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Psixologiya fanida hamkorlikning bir nechta shakli mavjud, ular quyidagilardan iboratdir: 1) faoliyatga kirish, 2) mustaqil harakatlar (o'qituvchi bilan talaba

hamkorlikda bajaradilar); 3) o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga talabani jalb etadi; 4) taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan talaba ana shu namuna asosida harakat qiladi); 5) madad harakatlari (o'qituvchi talabaga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi); 6) o'zini o'zi boshqarish Harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi); 7) o'zini o'zi qo'zg'atuvchi harakatlar; 8) uzini uyushtiruvchi harakatlar.

Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi xatti-harakatlar shaklida namoyon bulib, unga muloqot davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Birgalikdagi harakat davri kuyidagicha almashinuvni uz ichiga oladi: o'qituvchi harakat boshlaydi, talaba uni davom ettiradi yoki tugallaydi.

Oliy maktablarda hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarini o'rganish va tajribalarda sinab ko'rishning asosiy maqsadi talabalarning bilimlarni o'zlashtirishdagi kiyinchiliklarining sabablarini va manbalarini tadkik etish hamda ta'lim jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyatda bilimlarni o'zlashtirish samara-dorligini oshirishning asosiy omillarini anikdashdan iboratdir.

Jaxon psixologiyasida xulq-atvor, muomala va faoliyat muvaffakiyatini ta'minlovchi omillarning eng muhimi tarikasida insonning xissiy xayoti yotishi aksariyat nazariyotchi psixologlar tomonidan ta'kidlab o'tiladi. Bu talkinning xaqqoniyligiga xech qanday e'tirozlar bo'lishi mumkin emas, chunki mazkur omil eksperimental psixologiyaning mustaqil soxa sifatida vujudga kelishidan e'tiboran ustuvor, dalil takozo qilmaydigan atribut singari tadqiqot predmeti mohiyatiga singib ketgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, talaba muomalasining, xulq-atvorining kechishi, faoliyatining muvaffaqiyatli, sermahsul yakunlanishi kup jihatdan shaxsning hissiy holatlariga (hissiy ton, kayfiyat, stress, affekt va hokazo), izohlanishi murakkab bo'lgan ruhiy kechinmalarga, yuksak his-tuyg'ularga bog'liq

O'yin, mexnat, o'quv, muomala va boshqa faoliyat turlarining muvaffakiyatli kechishi, shaxslararo munosabatlarda xulq-atvorning namoyon bulishi ijobiy psixologik xrlat sifatida baholansa, emotsiya va hissiyotning barkaror, maqsadga yunalgan tarzda xukm surish extimoli e'tirof etiladi. Xis-tuyg'ularning

mustaxkamligi, barqarorligi, mukammalligi sifatlarining mavjudligi ularning dinamik stereotiplar tipiga aylanganligidan dalolat beradi. Faoliyat va xulqni shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarish uslubi shakllanganligini bildiradi. Tabiatning tarkibiy qismlari va jamiyatning a'zolari bilan turli shakldagi har xil xususiyatli munosabatga kirishishi, ular bilan muomala qilish maromlarining davriy (muvakkat tarzda) o'zgarishini vujudga keltiradi. Ana shu o'zgarish tufayli muvaffakiyatsizlik, omad va omadsizlik, optimizm (kelajakka ishonch) va pessimizm (umidsizlik), romantika va realiya, simpatiya va antipatiya, progress va regress, jo'shqinlik va tushkunlik, faollik va sustlik kabi birinchisi ijobiy (pozitiv) ikkinchisi esa salbiy (negativ) ruxiy xodisa kelib chikadi. Faoliyat va xulqning amaliyotda bir tekis kechishini ta'minlovchi xissiy xolat barkarorligining buzilishi unga kiyos qilingan muvaffakiyatning birlamchi omili tug'risidagi ilmiy ma'lumotlarni shubha ostiga qoldiradi.

Binobarin, jamiki narsaning boshlangich asosi, manbai hissiyot degan g'oyani, uning qiymatini umumiy fonda birmuncha qadrsizlantiradi, lekin ikkinchi darajali omilga aylantirib yubormaydi. Omillarning birlamchi va ikkilamchi, ustuvor va yetakchi, umumiy va xususiy, obyektiv va subyektiv, muhim va nomuhim mezonlar, alomatlar, ulchamlar yordami bilan baxolanishi ushbu psixologik masala mohiyatini oqilona talkin qilish zaruriyatini vujudga keltiradi. Xolbuki shunday ekan, ularning mohiyatini, keltirib chiqaruvchi sabablarini, harakatlantiruvchi kuchlarni muayyan dalillarga asoslanib taxdil qilish muammosi yuzaga keladi.

Talaba faoliyati va xulqining muayyan krnuniyatlarga asoslangan holda amalga oshishi ham obyektiv ham subyektiv shart-sharoitlarga bog'liq Tabiiy omillarni keltirib chiqaruvchi obyektiv (tashqi) shart-sharoitlar, ya'ni mikro va makro muhit, moddiy borliq, yordamchi vositalarning mavjudligi, ularning yuksak talablarga javob bera olish imkoniyati, tashqi qo'zg'atuvchilarning bezararligi, vaqt va fazoviy o'lchovlarning muvofiqligi, mutanosibliigi kabilardan tarkib topadi.

Xulq va faoliyatning namoyon bo'lishi uchun tabiiy shart-sharoitlar tizimi yaxlit holda ishtirok etishi, ularning muvaffakkiyatini ta'minlovchi omillar majmuasi tariqasida xizmat qilishi mumkin. Tabiiy shart-sharoitlardagi to'kislikdan tashkari,

ayrim yetishmovchiliklar va uzilishlarning sodir bo'lishi nuksonlarni keltirib chiqaradi, buning oqibatida ruhiy kechinmalar (faolligi, ildamligi, maqsadga yunalganligi buziladi.

Tabiiy shart-sharoitlar, muhit ta'sirida shaxsning ruxiy olamida bir qator keskin ham sifat, ham miqdor o'zgarishlari vujudga keladi, ular yangilanishlarda, yangi fazilatlar, xislatlar tug'ilishida namoyon bo'ladi. Shuni aloxida ta'kidlab o'tish joizki tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo'lmish geografik muhit bu borada muhim rol o'ynaydi. Ko'pincha u birinchidan, biologik shartlangan shaxs sifatlariga ta'sir etib, fenotiplarni genotiplarga aylantiradi (xududiy muhit, relyef, stixiya kutilishi: zilzila, qor ko'chkisi, dovul, suv toshqini, oyoq yetmas qorli tog'lar va hokazo). Ikkinchidan, ontogeneza shaxs harakterologik xususiyatlarining tabiiy ravishda shakllanishiga ta'sir o'tkazadi, shuning bilan birga mikro muhit bilan genlar, irsiy belgilar, alomatlar o'rtasida uyg'unlikni ta'minlab turuvchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Obyektiv (tabiiy) shart-sharoitlardan tashkari, inson omili bilan bog'likdigi subyektiv (shaxsga oid, uning qiyofasiga bog'liq) shart-sharoitlar muomalaning, faoliyatning, xulqning ijtimoiy turmushda samarali amalga oshishini uzluksiz ravishda ta'minlab turadi. Subyektiv shart-sharoitlarning qatoriga shaxsning barqarorligi, harakterining mustaxkamligi, extiyoj, motiv, maslak, saloxiyatning puxtaligi, o'zini o'zi boshqarish uslubining qat'iy ravishda shakllanganligi, biologik shartlangan xislatlar esa o'zaro uyg'unlashganligi kabilar kiradi.

Odatda obyektiv (tabiiy) va subyektiv (shaxsga oid) shart-sharoitlardagi o'zgarishlar tufayli ijobiy (pozitiv) yoki salbiy (negativ) xususiyatli psixologik holatlar, hodisalar, xislatlar, kechinmalar ustuvorligi yuzaga kelib, moddiy asos funksiyasini bajaruvchi oliy asab faoliyatini, markaziy asab tizimining ritmikasini, ishchanlik qobiliyatini pasaytiradi. Buning oqibatida faoliyat, xulq va muomala amalga oshishida odatiy say-harakatlar, jarayonlar, maromlar buzila boshlaydi, favqulodda asabiylik, ruhiy nuksonlilik, qonuniyatdan chetga og'ishlik, noxush kechinmalar hokimligi yetakchilik qiladi. Xuddi shu sababdan, faoliyat, xulq va muomalaning muvaffaqiyati shubha ostida qolishi mumkin, chunki mahsuldorlik,

sobitkadamlilik, maqsadga yunalganlik sifatlarining dominantligi yo'qrladi, natijada ushalmagan ezgu niyatlar armon tariqasida yuksak xis-tuyg'ular safida davriy xukm surishida davom etaveradi.

Talabaning tabiatga va jamiyatga nisbatan munosabati tasodiflarsiz, favquloddagi vaziyatlarsiz amalga oshishi mumkin emas, chunki ehtimollar darajasidagi kutilmaning yo'qdigi rejasiz vaziyatlarni shaxsning idrok maydonida keltirib chikaradi. Hayot va faoliyat strategiyasi va taktikasining ekstremal tarzda o'zgarishi individual va ijtimoiy xususiyatli vaziyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Vaziyatlar stixiyali, xaotik (betartib, tasodif) xatti-harakatlarni vujudga keltirib, tekis, odatiy, davriy, barkaror xususiyatlar maromini, ritmikasini izdan chiqaradi. Natijada insonning motivatsion, xissiy, kognitiv, regulyativ, xulqiy, irodaviy tuzilishi tarkiblarining funksiyasi buziladi. Shaxs tuzilishiga favquloddagi vaziyatlarning ichki larzasi faoliyat, xulq va muomalaning onglilik holatidan ongsizlikka o'tishini taqozo etadi, binobarin, muvaffakiyatsizlik xaqiqatga aylanadi.

Xush, nima uchun shaxs tasodiflarning oldini olishga tayyor emas yoki ko'pincha u bu borada kuchsizlik ojizlik qiladi?

Ushbu muammo yechimini juda sodda tarzda hal qilish ham mumkin:

1.Talaba ongli zot, yaratuvchilik qudratiga ega bo'lishidan qat'i nazar u tabiatning tarkibiy qismi, instinktlar, shartsiz reflekslar ta'siriga beriluvchandir;

2.Uning tana a'zolari (organizmi) favquloddagi hodisalar va vaziyatlarga (tabiiy xrdisa, xaloqat, tasodif, stress, affekt, xavf-xatar, risk) moslashgan emas;

3.Talaba komillik darajasiga erishmaganligi tufayli sababiy bog'lanish oqibatlarini, fobiya bilan bog'liq xis-tuyg'ularni oldindan sezish, payqash, ularga nisbatan aks ta'sir berish imkoniyati yo'q;

4.Talabada ikkinchi qiyofaning shakllanmaganligi (test, trening, trenirovka bilan qurollanmaganligi) uni xavf-xatar qurboniga aylantirishi shubxasiz.

Jaxon psixologiyasi fanining ma'lumotlariga qaraganda, muvaffakiyatsizlikdan hech kim himoyalangan emas, chunki ijtimoiy immunitet juda kuchsiz aks ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Ma'lumki, jismoniy, axloqiy va aqliy barkamollik tub

ma'nodagi komil inson to'g'risida muloxaza yuritishga imkon beradi va tarkiblarning to'la mutanosibli, uyg'unlashganligi, o'zaro taqozo etuvchanligi asosiy mezon vazifasini bajaradi. Komillik darajasi talabning ma'naviy dunyosiga aylanmas ekan, u taqdirda hech kim tasodiflar, favquloddagi vaziyatlar uning tomonidan odatiy hodisa sifatida osoyishta qabul qilinmaydi.

Muvaffaqiyat garovi (kafolati) funksiyasini bajaruvchi omillarning genezisi to'g'risida fikr yuritilganda, eng avvalo, ularning birlamchiligini, asosiy manba ekanligini nazarda tutish nazariy hamda metodologik muammolar yechimini oqilona topishga puxta negiz hozirlaydi. Boshlang'ich harakat nuqtasini belgilab berishga xizmat qiladi. Nazariy mulohazalarga binoan, faoliyat, xulq va muomalaning bir tekis, samarali kechishi genetik nuqtai nazardan quyidagilarga bog'liq

1. Obyektiv (tabiiy) va subyektiv (shaxsga oid) shart-sharoitlar mavjuddigiga;

2. Obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar hukm surishini o'zgartiruvchi tasodifiy va favquloddagi vaziyatlar ta'sirchanligiga, ustuvorligiga;

3. Emotsiya va hissiyotning ijodiy (pozitiv), salbiy (negativ) xususiyat kasb etishiga;

4. Talaba shaxslilik va harakterologik xususiyatlarining barqarorligiga (beqarorligiga);

5. Uning komillik darajasiga erishganligiga va hakazo.

Talabning hayot va faoliyatda muvaffakiyatga erishish, maqsadga muvofiqsay-harakatlarni unga yunaltirish uchun quyidagilarga e'tibor qilish zaruratdir:

1) obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar o'zgarishlarga tuzatishlar (korreksiya) kiritishga tayyorgarlikka;

2) favquloddagi vaziyatlarga ko'nikish uchun talabaga trening yordami bilan ta'sir o'tkazishga, unda ikkinchi qiyofani shakllantirishga;

3) organizmning har qanday stixiyalarga (tabiiy hodisalarga) chidamliligini o'ttirishga;

4) komillikka intilish xis-tuyg'ularini takomillashtirishga;

5) talaba imkoniyatlarini ruyobga chiqarishga ko'maklashishiga (o'zini o'zi kashf qilish, o'ziga o'zi buyruq berish, o'zini o'zi takomillashtirish, o'zini o'zi baholash, o'zini o'zi nazorat qilish o'zini o'zi boshqarish, o'ziga o'zi taskin berish o'zini o'zi qo'lga olish va hokazo). Talaba xayotini va faoliyatini o'zgartiruvchi asosiy omillar mavjud bo'lib, ular muayyan darajada uning ta'siriga beriluvchandirlar.

## XULOSA

Munosabat psixologiyasi shaxs ijtimoiy taraqqiyotiga daxldor dolzarb muammolardan biri ekanligi va bu muammo ichida shaxs faolligini ta'minlashga xizmat qiluvchi munosabat motivatsiyasining o'rganilishi esa bugungi ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotimizning tub mohiyati va mazmunini tashqil etgan o'quvchilardagi munosabat motivatsiyasini ijtimoiy psixologiya fani talablari asosida tadqiq qilish muammosi bilan bog'liq ko'p yillik izlanishlarimizning hosilasi o'laroq quyidagi ilmiy xulosalarga keldik.

1. Ilmiy matbuotda ma'lum bo'lgan ijtimoiy psixologiyadagi ilmiy-nazariy va metodologik adabiyotlar tahlili o'quvchi shaxsini rivojlantirishni muhim obyekt bo'lgan munosabat motivatsiyasi ko'rsatgichlarining bugungi kunda yetarli emasligini ko'rsatdi. qolaversa, ta'limning dastlabki vazifasi har bir o'quvchi shaxsining u yoki bu darajadagi o'quv topshiriqlarini astoyidil bajarishga bo'lgan ichki motivatsiyani harakatga keltiruvchi faol- ijobiy munosabatlar ko'lamini har jihatdan samarali tarzda shakllantirishni taqozo etadi.

2. Yillar davomida qator ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasi o'quv faolligi munosabat motivatsiyasining eng avvalo shakllanishi o'quvchi shaxsining o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyoti tamoyillariga xizmat qiluvchi qiziqishlar, umumiy yo'nalganlik, o'quv ustanovkalari va qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

3. Munosabat motivatsiyasi ko'rsatgichlari tahlili talaygina o'quvchi yoshlardagi o'quv faolligiga nisbatan faol-ijobiy munosabatlarning yetarlicha qaror topmayotganligidan dalolat beradi. Jumladan, bu munosabatlar zahirida o'quv faolligining namoyon etilishi bilan bog'liq o'ziga xos qiziqishlar, o'quv komponentlari, shaxs umumiy yo'nalganligi, ustanovkalar hamda o'ziga xos hamkorlikka intilish tizimi mavjudligining ta'siri alohida o'rin tutadi. Bu esa shaxs va faollik o'rtasidagi ijtimoiy psixologik mutanosiblik ko'rsatkichlari ko'lamini

ham ma'lum darajada tahlil qilish va tegishli ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

4. Ish davomida yaqqol va ravshan namoyon etilgan munosabat motivatsiyasi omillari va mezonlarining har biri o'ziga xos ko'rsatkichlar ko'lami, dinamikasi hamda umumiy qonuniyatlarga ega ekanligi va bu munosabat motivatsiyasi tizimidagi (umumiy yo'nalganlik, o'quv komponentlari,) bir-biriga bog'liq iyerarxik zanjirni mustahkamlashga va mukammallashtirishga xizmat qilishi bilan alohida harakterlanadi.

5. O'rganilgan ish obyektlaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining (2-va 4-sinf o'quvchilari misolida) o'quv faolligiga nisbatan qaror topayotgan bugungi munosabat motivatsiyasining o'ziga xos umumiy-tipik ko'rsatkichlari aniqlanganda shu narsa ayon bo'ldiki, 2-sinf o'quvchilarida (nq1000) maktab munosabatga motivatsiyasiga asoslangan faol-ijobiy munosabat ko'rsatkichlari orasidagi oraliq diapazon 8-50 foizni, o'rtacha umumiy ko'rsatkich esa 29,4 foizni tashqil etgan bo'lsa, 4-sinf o'quvchilari orasidagi diapazon 13-59 foizni, o'rtacha umumiy ko'rsatkich 37,9 foizni tashqil etadi. Ayni paytda, shaxs umumiy yo'nalganligi asosidagi faol-ijobiy munosabat motivatsiyasining o'rtacha umumiy ko'rsatkichlari 2-sinf o'quvchilari orasida 12,5 foizni, 4-sinf o'quvchilari orasida esa 15,3 foizni; ko'rsatishi mazkur munosabat tizimida nisbatan o'sish tendensiyasining mavjudligidan dalolat beradi. Binobarin, o'quvchilarda o'quv faolligiga nisbatan indifferent munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlari tahlili esa faol-ijobiy munosabat ko'rsatkichlariga nisbatan teskari tendensiya, ya'ni, o'quvchi yoshi ulg'aygan sari o'quv faolligiga nisbatan indifferent munosabat motivatsiya ko'rsatkichlari diapazoni kamayib borishi kuzatildi (izohlar jadvallarda mavjud). Olingan bu ma'lumotlar o'quv faolligiga munosabat motivatsiyasi imkoniyatlari haqida tegishli ilmiy tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

6. Ish davomida ishlab chiqilgan va ma'lum ilmiy-amaliy aniqliklar kiritilgan faol-ijobiy munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlari O'zbekistonda ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga bo'lgan ijtimoiy zaruratni yanada ravshanroq tasavvur

etishga imkon berishi bilan birga, mavjud ta'lim tizimining ijtimoiy-psixologik samaradorligini va istiqbollarini belgilash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T.: "Ma'naviyat", 2008
2. I.A. Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: 2011.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009.

4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.-T.: «O‘zbekiston», 1996.
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 1992.
6. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: «Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori».- T.: «Sharq», 1997.
7. Abu Ali Ibn Sino. Tibbiy risolalar. - T.: «Fan», 1987.
8. Abulxanova-Slavskaya K.A. Psixologiya formirovaniya i razvitiya lichnosti. - M.: «Nauka», 1981. s. 97-115.
9. Ayzenk G.D. Uznay svoy sobstvenniy koeffitsent intellekta. – M., 1995.
10. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. - M., 1996.
11. Aseyev V.G. Motivatsiya povedeniya i formirovaniya lichnosti. – M., 1976.
12. Asmolov A.G. Lichnost kak predmet psixologicheskogo issledovaniya. - M., 1984. – 204 s.
13. Asmolov A.G. Psixologiya lichnosti. – M., 1990.
14. Asomova R.S. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi (Avtoref. diss. kand. psix. nauk).-T., 2002.-28 s.
15. Baratov SH.R. Sotsialno-psixologicheskiye i nauchno-prakticheskiye osnovi sozdaniya psixologicheskoy slujbi v Uzbekistane. (Avtoref. diss. dokt.psix. nauk).– T.,1998.-37 s.
16. Baratov SH.R. Kichik yoshdagi o‘quvchilar faoliyatini baxolash. - T.: «O‘qituvchi», 1992. - 48 b.
17. Baratov SH.R. Boshlang‘ich ta’lim tizimida psixologik xizmat muammosi «Boshlang‘ich ta’limning dolzarb muammolari» Resp. ilmiy-amal. anjum. tezislari to‘plami.-Buxoro, 1995. 15-21-b.
18. Baratov SH.R. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. -T.: «O‘qituvchi», 1995. - 56 b.
19. Baratov SH.R., Muxtorov E.M O‘smirlarda psixologik muhofaza T.: Fan, 2008 y.-141 b.
20. Beruniy A. Tanlangan asarlar. II tom. – T., 1965. - 125 b.
21. Bibrix R.R. Iz istorii problemi determinizma v psixologii motivatsii. Vestnik MGU, 1978, №2. str. 14.

- 22.** Bogoslavskiy V.V. Motivi i ix mesto v razvitiy lichnosti. -V kn.: Psixologiya vospitaniya shkolnika. - L., 1974. (s.33-50).
- 23.** Bodunov M.V. Issledovaniye sootnosheniy formalno dinamicheskoy storoni aktivnosti s integralnimi EEG-parametrami. - V kn.: «Psixofiziologicheskkiye issledovaniya intellektualnoy samoregulyatsii i aktivnosti». - M.: «Nauka», 1980.
- 24.** Bojovich L.I. Lichnost i yeye formirovaniye v detskom vozraste. - M.: «Prosvesheniye», 1968. - 468 b.
- 25.** Bojovich L.I. Problemo‘ razvitiya motivatsionnoy sfero‘ rebyonka. - V kn.: «Izucheniye motivatsii povedeniya detey i podrostkov». - M.: «Pedagogika», 1972.
- 26.** Brushlinskiy A.V. O sootnoshenii biologicheskogo i sotsialnogo v razvitiy lichnosti. - V sb.: «Teoreticheskkiye problemi raboti v shkole». «Kaluga», 1963.
- 27.** Brushlinskiy A.V. O vzaimosvyazi prirodnoy i sotsialnoy v psixicheskom razvitiy cheloveka. - V sb.: «Problemi geneticheskoy psixofiziologii». - M.: «Nauka», 1978.
- 28.** Vaysman R.S. Razvitiye motivatsionnoy sferi cheloveka v starshem vozraste. Avtoref. kand. diss. – M., 1976.
- 29.** Vaysman R.S. K probleme razvitiya motivov i potrebnostey lichnosti v ontogeneze. «Voprosi psixologii», 1973, №5. s.23-40.
- 30.** Vasilyev I.A., Magomed-Eminov M.SH. Motivatsiya i kontrol za deystviyem. - M., 1991. - 144 s.
- 31.** Vilyunas V.K. Psixologicheskkiye mexanizmi biologicheskoy motivatsii.- M., 1986. -208 s.
- 32.** Vilyunas V.K. Spetsifika protsessov motivatsionnogo obuslovlivaniya v psixike cheloveka. Vestnik MGU, 1989, №2. s. 25-33.
- 33.** Vilyunas V.K. Psixologicheskkiye mexanizmi motivatsii cheloveka. – M., 1990.
- 34.** Vlasova I.N. Izucheniye osobennostey dominirovaniya motivov u detey mladshego shkolnogo vozrasta. «Voprosi psixologii», 1977, №6. s. 97-196.
- 35.** Davletshin M.G., Kovalyov A.G., Krutetskiy V.A. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1979.

**36.** Davletshin M.G. Natsionalnaya programma podgotovki kadrov i osnovniye zadachi psixologicheskoy nauki. Yangi turdagi o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari. - T., 1988. - s. 3-7.

**37.** Davletshin M.G. Psixologiya texnicheskix sposobnostey. - T., 1975.

Internet manbalari:

1. [www.google.ru](http://www.google.ru)
2. [www.lib.psixology.ru](http://www.lib.psixology.ru)
3. [www.psy\\_test.ru](http://www.psy_test.ru)
4. [www.ref.uz](http://www.ref.uz)